

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



# VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning  
24-iyunidan chiqa  
boshlagan

2025-yil 3-yanvar  
№1 (3115)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatanparvar.uz

## OFTOBDAN HAM O'ZING MEHRI ILIG'IMSAN, VATANIM!

O'g'lim desang, osmonlarga  
G'irotd bo'lib uchgayman,  
Chambil yurtida Alpomishga  
Navkar bo'lib tushgayman...

Muhammad YUSUF

**4-5** VATANGA XIZMATNING  
BIR YILI

**10** TO'QSABO  
NOSIRBEK TAQDIRI

**17** MAQSADLARI BIR,  
ORZULARI MUSHTARAK

**18** KELAJAK CHEMPIONLARI  
TARBIYALANMOQDA

IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
vatanparvar-bt@umail.uz  
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi  
instagram.com/mudofaavazirligi  
youtube.com/c/uzarmiya

# O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI

Muhtaram vatandoshlar!  
Siz, azizlarni, ko'p millatli O'zbekiston xalqini yangi – 2025-yil bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

Jahondagi murakkab vaziyatga qaramasdan, o'tayotgan yil mamlakatimiz uchun qutli va barakali bo'ldi. Buning uchun har qancha shukrona aytsak, arziydi.

Mehnatkash xalqimizning fidokorona mehnati, siyosiy-ijtimoiy faolligi bilan Yangi O'zbekiston g'oyasi real voqelikka aylanmoqda.

Oliy Majlis va mahalliy Kengashlarga bo'lib o'tgan saylovlar demokratik islohotlarning yangi davriga qadam qo'yganimizni yana bir marta tasdiqladi.

Yurtimizda yuqori texnologiyali yangi sanoat majmualari, infratuzilma va logistika tarmoqlari, avtomobil va temiryo'llar barpo etildi. Biznes, IT va turizm sohalari izchil rivojlanmoqda. Aholi daromadlari va turmush sifati oshmoqda.

Mirishkor dehqon va fermerlarimiz, klasterlarimiz ishchi-xizmatchilari mardona mehnat qilib, mo'l hosil yetishtirdilar.

Yangi uy-joylar, bog'cha va maktablar, oliygohlar, madaniyat va sport maskanlari qad ko'tarmoqda. Yurtimiz tobora obod qiyofa kasb etmoqda. Minglab yurtdoshlarimiz Yangi yilni yangi uylarda kutib olmoqda.

Bilimli va shijoatli, navqiron yoshlarimiz ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Ayniqsa, Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida erishilgan rekord natijalar milliy sportimiz tarixida yangi sahifa ochdi.

Fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, mahallaning roli va ta'siri kuchaymoqda. Ma'naviy yuksalish jarayonlari hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanmoqda.

Global ahamiyatga ega tashabbuslarimiz jahon hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Xalqaro maydonda O'zbekistonning raqobatbardosh mamlakat, ishonchli hamkor sifatidagi obro'-e'tibori yuksalib bormoqda.

Hech shubhasiz, bularning barchasi diyorumizdagi barqarorlik, do'stlik va hamjihatlik natijasidir.

Bugungi shukuhli oqshomda siz, azizlarga, olijanob va bunyodkor xalqimizga halol mehnatingiz, ona yurtga sadoqatingiz uchun samimiy minnatdorlik izhor etaman.

Qadrli do'stlar!

Biz 2025-yilga mamlakatimizda **“Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”** deb nom berdik. Asosiy maqsadimiz – inson va tabiat muvozanatiga asoslangan tizim yaratishdir.

Yangi yilda biznes uchun yanada keng imkoniyatlar yaratiladi. Xususi mulk daxlsizligini ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish ishlarini qat'iy davom ettiramiz.

Ijtimoiy sohalar, ish haqi, pensiya va stipendiyalar, nafaqalar miqdorini oshirish e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Farzandlarimizning zamonaviy bilim va kasb-hunar egalari, barkamol bo'lib tarbiya topishlari uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sport sohalariga e'tibor yanada kuchaytiriladi.

Muhtaram faxriylarimiz, xotin-qizlar va yoshlarga g'amxo'rlik qilish, ijtimoiy himoya samarasini oshirish ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini mustahkamlash, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash ishlarini yangi bosqichga ko'taramiz.

Muxtasar aytganda, **“Inson qadri uchun, inson baxti uchun!”** degan olijanob maqsadni barchamiz birgalikda amalga oshiramiz.

Aziz va muhtaram yurtdoshlar!

Barchangizni, chet ellardagi vatandoshlarimiz, xorijiy hamkor va do'stlarimizni bugungi qutlug' bayram bilan yana bir bor chin dildan tabriklayman.

Yangi yil har bir inson, har bir oilaga, jonajon yurtimizga katta-katta yutuq va omadlar olib kelsin!

Hamma ezgu niyatlarimiz ro'yobga chiqsin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
**O'zbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti**

## IMKONIYATLAR VA ISLOHOTLAR ORTIDA JAMIYATNING HAR BIR A'ZOSI TENG EKANIGA ISHORA BOR

Xalq irodasi, ezgu niyatlariga hamohang tarzda o'z taraqqiyot strategiyasini shakllantirgan davlat el farovonligi uchun ortga qaytmas vazifalarga kirishgan sanaladi. Buning uchun eng muhim maqsad va vazifalar, avvalo, Asosiy qonunimiz – yangilangan Konstitutsiyada mustahkamlandi.

Ma'lumki, ulug' ajdodlarimiz qalbida bo'lgan ezguliklar bugun yurtdoshlarimiz ko'nglida ham adolat, haqiqat, iymon, bag'rikenglik va tantilik ruhida jo'sh urmoqda. Yangilangan Konstitutsiyada O'zbekiston “ijtimoiy davlat” degan tamoyil muhrlanib, davlatning bu sohadagi majburiyatlari bilan bog'liq normalar uch baravarga oshdi.

2040-yilga borib O'zbekiston aholisi 50 millionga yetishi kutilmoqda, jamiyatning yarmidan ko'pini esa yoshlar tashkil qiladi. Ularga munosib hayot sharoiti yaratish uchun esa barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar bo'lishi lozim. Buning uchun aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish, amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat organi tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni bilan

Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Tashkilotning asosiy vazifalari etib, og'ir hayotiy vaziyatga tushgan aholi bilan manzilli ishlash va ularga ijtimoiy xizmat, yordam ko'rsatish, himoyaga muhtojlarga ko'maklashish belgilandi. Bu elimizga xos azaliy qadriyatlarining yana bir bor jonlanishiga turtki bo'ldi. Ma'lumki, bobo va buvilarimiz himoyaga muhtoj qo'shnilar holidan xabar olish, ularga qalban yaqin bo'lib, ehtiyojlarini ta'minlashga ko'maklashishni eng ulug' savob amallardan, deya sanashgan.

Ayni yo'nalishga davlatimiz rahbarining alohida e'tibori bugun ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar hayotiga yangicha yorug'lik bag'ishlamoqda. 2024-yil 13-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun keng imkoniyatlar yaratilishi yuzasidan vazifalar, tizimni kuchaytirishga doir yangi tashabbuslar aytiladi.

Jumladan, 2025-yilda 1 million 200 ming aholini kambag'allikdan chiqarish uchun ta'lim, to'garak, kasb-hunar, tibbiyot masalalarini hal qilish va yashash sharoitini yaxshilash zarurligi ta'kidlandi.

Darhaqiqat, bu borada yaxshi tajribalar bor. Masalan, Tayloq va Kosonsoy tumanlarida “Ilk rivojlanish markazlari” ochilib, kambag'al oiladagi va nogironligi bo'lgan 4 ming 200 nafar bolaga bog'cha ta'limi berilgan. Endi esa kambag'allik yuqori mingta mahallada yana bittadan oilaviy bog'cha faoliyati yo'lga qo'yiladi. Oilaviy bog'cha o'rinlarining 15 foiziga kambag'al oila farzandlari qabul qilinadi va bog'cha to'lovi qisman qoplab beriladi. Bu aslida bolalarning ota-onalari uchun har tomonlama qulay imkoniyat demakdir. Chunki ular farzandini parvarishlash bilangina band bo'lmay, jamiyat hayotida faol bo'lish, kasb-hunarlar bilan shug'ullanishiga sharoit yaratiladi. Shu tarzda oilalarda rozilik kayfiyati paydo bo'ladi. Hissiy xomushliklardan forig' bo'lishiga imkon beradigan ish bilan chalg'ish, siqilishlardan uzoq bo'lishga olib keladi.

Shuningdek, yig'ilishda nogironligi bor bolalarni ta'lim bilan qamrab olish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda har bir tumanda bittadan bog'chada inklyuziv

ta'lim guruhi ochilishi aytiladi. Harakati cheklangan bolalarning maktabga kelib-ketish xarajatining 75 foizini qoplash tizimi joriy qilinadi. 1-sentabrgacha 954 ta maktabda inklyuziv sinf tashkil qilinib, yana 1 ming 800 nafar nogironligi bor bolaning ta'limiga sharoit yaratiladi. Bunday maqsadli imkoniyatlar va islohotlar ortida jamiyatning har bir a'zosi teng ekaniga ishora bor. Nogironligi bor bolalar ongi ilmga muhtoj bo'lgan vaqtda uni umidli maqsadlar yo'lida tengdoshlari qatori yo'naltirishga davlatimiz tomonidan sharoit yaratilayotgan ekan, bu o'z o'rnida, O'zbekistonning insonparvarlik maqsadlarini ochiq namoyon etadi.

Inson qanday vaziyatda bo'lmasin, unga berilgan birgina imkoniyat ham yuksak maqsadlar tomon harakat qilishi kerakligini uqtiradi. Umid bilan yashash muqaddas islom ta'limotida ham eng ulug' amallar sirasida qayd etiladi.

Hazrat Alisher Navoiy bunday ezgu amallarga bergan ta'rifida uning ortidan bo'ladigan mukofotni qaydlarida bejiz muhrlamagan:

*Kimki bir ko'ngli buzug'ning  
xotirin shod aylagay,  
Oncha borki, Ka'ba vayron  
bo'lsa, obod aylagay.*

**Abdulaziz RUSTAMOV**  
O'ZA



Esse

# BIR QANOTLI QUSH PARVOZ ETOLMAYDI



Bu gal xizmat safari bilan Surxondaryo viloyatida joylashgan Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugga qarashli harbiy qismlarning biriga bordim. Temir ulov Termiz vokzaliga "uh" tortib to'xtaganida quyosh atrofni qizdira boshlagandi. Oltin zarlar daraxt barglaridan dumalab, zaminga jon ato etardi. Yer undan energiya olib, rohatdan yuziga ajinlar paydo bo'la boshlagandi. Yo'lovchilar uyi, oilasi, yaqinlari va do'st-u yorlari diydoriga oshiqyapti. Bizni esa safdosh akamiz – III darajali serjant Akbar Ahmedov qarshiladi.

– Nihoyat, keldinglar, – dedi u. Qizil yuzi, moviy ko'zi baxtdan chaqnaq turibdi. Quchoq ochib ko'rishamiz. Hol-ahvol so'rashish uzoq davom etadi. Yo'lakning qatnov qismida ko'p turib qoldik, shekilli, o'tkinchilar yelkalari bilan bizni turta boshladi. Kimdir tomog'ini og'ir qiradi, boshqasining yuzida norozilik alomati paydo bo'ladi, yana biri ko'zini olaytirib, yov qarash qilib, suzib o'tadi.

III darajali serjant Ahmedov juda bag'ri keng inson. Hech qachon hayot qiyinchiliklariga, yo'lda uchragan muammolarga taslim bo'lmaydi. Matonatli. Haqiqiy Vatan himoyachisi.

Harbiy qismdamiz. Atrofimiz saranjom va ozoda. Barcha narsa tartibli. Rayhonning nafis hidi dimoqqa xush yoqadi. Yo'lakning ikki chekkasida harbiy xizmatchilarning amaliy o'quvlardan so'zlovchi suratlarini o'rnatilgan. Diqqatimni chap tomondagi surat tortdi: Vatan posboni o'qotar qurol bilan nishonni mo'ljalga olyapti, boshqasi tankni shaxt bilan boshqarib bormoqda. Yana biri samolyotdan parashyut bilan sakrash haqidagi buyruqni kutib turibdi.

O'shanda guruh komandiri katta leytenant Farrux Bobomurodov bilan tanishgandim.

– Bu yigit juda salohiyatli va har ishda ilg'or, – dedi harbiy qism komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari podpolkovnik Nizomiddin Otajonov. – O'z kasbining haqiqiy ustasi. Vazifa bersangiz bas, har qanday holatda ham o'sha topshiriqni oxiriga yetkazadi. Jamoasi ham o'zidek – saralar jamlanmasi.

Farruxga qarayman. O'rta bo'yli, bug'doyrang, ko'zlari biroz qisq, qoshlari qo'shilib ketmagan, ammo qalin. Yelkador. Qo'llarini musht qilib, tugib olgan. Og'irligini o'ng oyog'iga tashlab, jiddiy turibdi. Bilagi harbiy libosini yirtib chiqaman, deydi. Sport bilan doimiy shug'ullanishi aniq. U o'ziga nisbatan bildirilayotgan maqto'v va e'tiroflardan sholg'omdek qizarib ketdi.

– Zamonning asl qahramonlaridan, – dedi III darajali serjant Akbar Ahmedov. So'ngra Farruxni chap yelkasiga qo'lini qo'yib, o'ng qoshini ko'tarib, mehr bilan

menga qaradi. – Ilmga chanqoq, yosh ofitserlardan, adashmasam, endi 28 bahorni qarshi olish arafasida, shundaymi, – u Ahmedovning so'zini boshini qimirlatib, tasdiqladi.

– Ko'rdingizmi, – Akbar aka muhim bir sinoatni tagiga yetganday mag'rur turib, qaddini rostladi, so'ng oyoqlarini keng yoyganча gapida davom etdi. – Bu o'g'lonimizning natijalarini sanasangiz, barmoqlaringiz yetmaydi. Jizzaxning mardlaridan-da. Baxmal havosidan to'yingan. Bilagi baquvvat. Kuragi yer ko'rmagan. Harbiy qismning ko'zga ko'ringan, fidoyi va sadoqatli vakillaridan. U ushlagan joyini uzmay qo'ymaydi...

Xullas, guruh yetakchisi katta leytenant Farrux Bobomurodov bilan tanishuvimiz ana shunday samimiy bo'lgandi. So'ng u haqda nimadir yozishni ko'p o'ylab yurdim. Va qog'ozga o'zi so'zlab bergan voqealarni boricha, hech qanday bo'yoqlarsiz, o'zgartirmay tushirishga qaror qildim.

## “SPORT CHARXLAYDI, ILM YUKSAKKA KO'TARADI”

Biror qushning bir qanotda uchganini ko'rganmisiz? Albatta, bu bo'lmagan gap, dersiz. Haqiqatan shunday. Hech qaysi qush bunday ko'rinishda parvoz etolmaydi, bir oyoqlab yugurmaydi ham. Agar shunday bo'lganida bu tabiatga zid hodisa, derdik. Ammo inson bolasi-chi? U ayni ko'rinishda ko'kka ko'tariladimi? Kulmang, aka. Bilaman, odamda qanot yo'q. Qolaversa, bunday yaralmagan. Unda qanday qilib uchsini? Mendan so'rasangiz, buni uddalasa bo'ladi, degan bo'lardim. Chunki kishi istasa, barchasiga erishadi. Faqat zehni charxlashi, idrok etishi, qisqasi, o'zini toblashi kerak. Ana shunda xohlang uching, xohlang choping...

Harbiylikka bolaligimdan mehr qo'ydim. Ushbu libosni kiygan Vatan himoyachilarini ko'rsam, qalbmida o'zgacha faxr paydo bo'ldi. Yuragim tortgani uchun ham shu yo'lda izlandim, intildim va bilimlarni o'rgandim. Dadam doim menga: “Jismoniy tayyorgarlik er yigitni baquvvat, chaptast va qaytmas

qilsa, ilmi uni yuksaklarga ko'taradi”, derdi. Haqiqatan shunday ekan. Men buni o'zimda sinovdan o'tkazdim. Ishoning, bugun nimaki yutuqqa erishgan bo'lsam, ana shu so'zlar mohiyatida kashf etganim qo'l kelgan.

## “VAQTNI NAZORAT QILING”

Qurolli Kuchlar akademiyasiga o'qishga kirish, uning kursanti bo'lish yurt taqdiriga befarq bo'lmagan har qaysi yigit uchun orzu bo'lib kelgan. Chunki bu dargoh Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadi. Men ana shu joyda harbiy sinoatlarni o'z kasbining haqiqiy ustalaridan o'rgandim. Ustozlarimning tajribalarini o'zlashtirdim. Harbiy taktika, jang olib borish uslubi, komandirlik mahorati... bularning barcha-barchasini yillar davomida jismimga singdirib keldim. Hech qachon bugungi ishni, o'rganishim kerak bo'lgan bilimni ertaga qoldirmaganman. Aniq reja bilan harakat qilaman.

Kursantlik davrida nafaqat Qurolli Kuchlar miqyosidagi, balki xalqaro maydonda o'tkazilgan nufuzli musobaqa va tanlovlarda ishtirok etdim. Jamoamizga ro'baro' bo'lgan raqiblarni o'z usulida mag'lub qildik. O'z kuchini qarshi ishlatdik. Natijada ba'zan zafar quchdik, ba'zan ko'nikma hosil qilib, xulosalar chiqardik. Bilasizmi, hech qachon marrani katta olishdan qo'rqish kerak emas. Maqsadingiz sizdan qancha olisda bo'lsa, siz unga shuncha tez yetishish uchun harakat qilasiz. Yugurasiz va intilasiz. Shunday qilib, vaqt sizni emas, siz vaqt ustidan nazorat qilishga o'tasiz.

## “KOMANDIRLIK QOBILIYATINGIZ YO'QMI, UNDA O'ZINGIZNI BOSHQA KASBDA SINANG”

Ustozim aytgan: “Komandir hamisha shaxsiy tarkibga namuna bo'la olishi kerak. Agar shunday bo'lsa, demak, guruh ortingizdan ikkilanmay ergashadi. Aksi bo'lsa-chi, unda shu yerda to'xtab, o'zingizni boshqa yo'nalishda sinab ko'rganingiz durust”. Chunki ba'zan yetakchining qarori butun bo'linmaning taqdirini qaysidir ma'noda hal qiladi. Shunday ekan, uzoqni ko'ra olish, kutilmagan vaziyatlardan chiqib ketish, muhimi barchaning ishonchini oqlash lozim. Men harbiy qismga kelgan ilk kunimdanog ana shu jihatga diqqat qaratganman. Har bir harbiy xizmatchini eng munosib bo'lishi uchun o'qitaman va bilganlarimni o'rgataman. Hech qachon o'tgan kun bilan yashamayman. Kechagi bilim bilan cheklanib qolmayman. Odatim shunaqa. Yangi taktikalarni o'rganib, uni mashg'ulotlarda guruhim bilan qo'llab ko'ramiz. Ish bersa, o'zini to'liq oqlasa, amaliyotga joriy etamiz. Jamoamda tajribasi yuqori, ko'p yil xizmat qilgan serjantlar bor. Ularning bilimidan keng foydalanaman. Yosh harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini yanada oshirish, o'ziga, safdoshiga bo'lgan ishonchni, axloqiy-ruhiy sifatlarini mustahkamlash uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqaramiz. Boisi har qaysi jamoa bir musht bo'lsa, u bergan zarba nishonni chilparchin, raqibning esa oyog'ini osmondan qilib qo'yadi.

Podpolkovnik Nizomiddin Otajonov allaqachon boshqa vazifalar bilan shug'ullanish uchun chiqib ketgan. To'g'ri-da, u harbiy qismda

shaxsiy tarkibga mas'ullardan. Akbar Bobomurodov ishtirok etgan musobaqalardan hikoya qiluvchi suratlarni tomosha qilib, ko'zdan kechiryapti.

## “O'Z KASBIMNING HAQIQIY USTASIMAN”

Stol ustida turgan rasm e'tiborimni tortadi: yuzlari dumaloq, oq-sariqdan kelgan, ko'zlari katta-katta, ozg'in, nigohi o'tkir kelinchak qo'lida shiringina chaqaloqni ko'tarib, jilmayib Farruxga qarab turibdi. Ustidagi libosi uni yanada go'zal, dilbar qilib ko'rsatardi.

Muhabbat sharbatidan 24 yoshimda to'yinganman. Keliningiz – Azizanning – yoydek kipriklari qalbimni teshib kirgan. O'shanda yuragim hovliqqan, aqlim o'zimga-da bo'ysunmay qolgandi. Chin sevgi lazzati – Yaratganning himmati bilan qo'shni qishloqlik qiz hushimni o'g'irladi. Vaqt o'tib, u ham meni qabul qildi. Elga osh berib, to'y qildik. Bilasizmi, erkak kishi uchun baxt – ayoli uni tushunishida. Shukur, Aziza qanday bo'lsam, shundayligimcha sevdi. Ko'ngil saroyidan joy berdi.

Qurolli Kuchlar miqyosida an'anaviy tarzda “O'z kasbining ustasi” ko'rik-tanlovi o'tkaziladi. Unda asl mutaxassislar kashf etiladi. 2024-yilgi bahslarda “Eng ilg'or guruh komandiri” nominatsiyasi bo'yicha ishtirok etdim. Bellashuvlarga bir necha oy hozirlik ko'rdim. Har kuni o'z ustimda shug'ullanaman. Chunki musobaqada eng zo'rlar qatnashadi. Unda g'olib bo'lishning yagona yo'li esa barchani mag'lub etish. Ammo qolgan qatnashchilar ham shu maqsadda – birinchilikni qo'lga kiritish uchun keladi. Ayolim ikkiqat. Oy kuni yaqin. Men harbiy qism shaxsiy tarkibning ishonchini oqlash uchun Markaziy harbiy okrugining “Forish” tog' poligoniga jo'nab ketdim. Kurashlarda qatnashayapmiz-u, ikki xayolim uyda, Azizada.

Qisqasi, bir necha kun davomida 32 nafar guruh komandiri bilan berilgan shartlarda o'zaro kuch sinashdik. Harbiy taktika, jismoniy imkoniyatlar, merganlik, bilimlar sinovi – bular kimning nimalarga qodir ekanini, kim o'z kasbining haqiqiy ustasi ekanini yuzuga chiqarishga qaratilgandi. Ko'rik-tanlovda natijalarim eng a'lolardan edi. Uydan xabar keldi – qizaloqlik bo'libman. Ishoning, o'zimni qo'yarga joy topolmay, baxtdan sarxush bo'lib qoldim. Sababi baxt ikki hissa meni chulg'ab, ko'klarga olib chiqqandi, ham musobaqada g'alaba qozonyapman, ham ota bo'lgandim.

Katta leytenant Farrux Bobomurodov gapirishdan taqqa to'xtadi. Shunda xonaga jimlik bostirib kirdi. Kichik komandirning yuziga qarayman. Uning yuzida hayotdan minnatdorlik namoyon edi. Qattiq xayol surib qoldi. Ammo qalin lablarida mayin tabassum qotib qolgandi. Haqiqiy baxtdan hozir to'lib-toshayotgandi u. Yillar oldin qilgan orzulariga bugun erishmoqda...

Suhbatdoshim daf'atan o'ziga keldi. So'ng ikki qo'li bilan ko'zlarini yaxshilab ishqalab, o'rmdan sakrab turdi... biz xonadan harbiy qism hovlisiga chiqdik...

Poytaxtga, xizmat joyimga qaytdim. Uyda esa oilam, uch yoshdan endigina sakrab o'tgan o'g'lim intizor bo'lim meni kutib, yo'limga ko'z tikar edi...

**Kapitan Shohrux SAIDOV,**  
“Vatanparvar”



Sarhisob



# VATANGA XIZMATNING

# BIR YILI

Milliy armiyamiz saflarida xizmat qilish hayotning daqiqa va soatlarini sarflash bilan emas, insonning umri va borlig'ini to'ralig'icha bag'ishlash bilan belgilanadi. Bu muqaddas vazifa nafaqat davlatimiz siyosatida, balki muqaddas libos ichra urib turgan har bir yurakda, har qanday ob-havo va sharoitda kecha-yu kunduz davom etadi. Yilning to'rt fasli guvoh: harbiy xizmatchilarimiz har qanday mashaqqatli lahzalarda ham qo'yilgan vazifalarni bajarishdan sira chekingan emas.

2024-yili milliy armiyamiz bo'y-bastini har tomonlama rostladi, tobladi. Yilboshi fevralda Markaziy harbiy okrug "Forish" tog' poligonida o'tkazilgan batalyon taktik-o'quvlarida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jangovar shaylikning qay darajada ekanini kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldik. Tarixdan ma'lumki, jangda qo'shin soni emas, uning tezkor harakatlanishi, jangovar tayyorgarligi va jangchilarning mahorati muhim ahamiyat kasb etgan. Bunday taktik uslublar bugungi kunda brigada, batalyon yoki boshqa bo'linmalar miqyosidagi mashg'ulotlarda sinovdan o'tkazilib, amaliy ko'nikmalar orqali ko'zlangan maqsadlarga erishilishi ta'minlanmoqda.

**FEVRAL OYIDA** Ozarbayjon Respublikasi Mudofaa vazirligining bir guruh harbiy xizmatchilari O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi "Chimyon" tog' tayyorgarligi o'quv mashqlar markaziga tashrif buyurishi va "Tog' yetakchisi" o'quv kursida ishtirok etishi harbiy xizmatchilarning tog'li hududlardagi qiyin sharoitlarda jang olib borish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishda, mahoratini boyitib borishda muhim

bosqichlardan biri bo'lib xizmat qildi.

Shu bilan birga **"Chimyon" tog' tayyorgarligi o'quv-mashqlar markazida** bo'lib o'tgan mashg'ulotlarda yurt o'g'lonlari kunduzgi va tungi otish, razvedka hamda aloqa, hududga muvofiq niqoblanish, shartli bemorni favqulodda evakuatsiya qilish, pistirmadan hujum, shartli dushmani qurshab olish, daryodan kechuv, jarlik va daralararo kanat orqali xavfsiz o'tish yo'lini hozirlash kabi o'nlab murakkab jangovar vazifalarni guruh va yakka tartibda ado etishdi.

Mashg'ulotlarga singdirilayotgan yangicha yondashuvlar Shimoli-g'arbiy harbiy okrugga qarashli **"Nukus" umumqo'shin poligonida ham o'z aksini topdi.** U yerda cho'l sharoitida jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish, majmuaviy mashqlarni bajarish uchun jangovar shaharchalar, turli qurol namunalaridan amaliy o'q otish uchun mo'ljallangan chinakamiga universal kompleks shaharcha barpo etildi. Poligon hududidagi o'q otish marralari, o'qotar qurollardan noqulay sharoitlarda nishonni yakson qilish mashqlari avvallari

eskicha ko'rinishda o'tkazilgan bo'lsa, bugun taktik usullar asosida yangicha manyovr va yondashuvlar asosida olib borilmoqda.

Darvoqe, jangchini tom ma'noda toblaydigan maskan, shubhasiz bepoyon poligondir. Markaziy harbiy okrugning **"Sazagan" dala-o'quv maydonida** okrug qo'shinlaridagi mutaxassis meraganlar va ushbu mutaxassislikka ega bo'lish istagini bildirgan harbiy xizmatchilar bilan birgalikda o'quv-uslubiy yig'in o'tkazildi. Ko'zlangan asosiy maqsad meraganlik mahoratiga ega eng sara mutaxassislarni aniqlash va ularning safini kengaytirish hamda Xalqaro armiya o'yinlariga tayyorlash bo'ldi.

Mart oyining so'nggi 10 kunligida Sharqiy harbiy okrug harbiy qismlarining birida navbatdagi nazorat tekshiruvi – sinov mashg'ulotlarining bo'lib o'tishi harbiy xizmatchilarning ham nazariy, ham amaliy bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazgan bo'lsa, aprel oyida xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan voqealarga guvoh bo'ldik. Hindiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Quruqlikdagi qo'shinlari shtab boshlig'i general Manoj Pande rahbarligidagi delegatsiyaning O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga tashrifida ham O'zbekiston – Hindiston: **"Do'stlik – 2024"** do'stlik aloqalarida o'ziga xos bosqich bo'ldi.

Darhaqiqat, qo'shinlarda xizmat qilayotgan har bir kichik komandirning yuksak bilimli, keng dunyoqarashli bo'lishi, har qanday murakkab va nostandart vaziyatda to'g'ri qaror qabul qila olishi juda muhim. Bugungi kunda serjantlar korpusiga qo'yilayotgan



talablar ana shu tamoyillar asosida shakllanmoqda. Shuningdek, harbiy jamoalarda sog'lom axloqiy-ruhiy muhitni kamol toptirishda kichik komandirlarning o'rni va roli nihoyatda muhim.

**MARKAZIY HARBIY OKRUGNING** "Forish" tog' poligonida kichik komandirlar, ya'ni yo'riqchi-serjantlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida o'tkazilgan o'quv-uslubiy yig'inda zamonaviy jang olib borish usullari, shuningdek jangovar texnika hamda uskunalarning ishlash tartibi va xususiyatlariga alohida urg'u berildi. O'quvlar davomida yaralangan harbiy xizmatchiga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish va uni xavfsiz hududga olib o'tish, guruh, yakka tartibda harakatlanib, nishonlarni yo'q qilish hamda zirhli mashinalar va artilleriya qurollari yordamida shartli dushmani yakson qilish bo'yicha bilim hamda ko'nikmalar oshirildi.

Xalqimizda "Burgutning ko'zidan uradi" degan ibora bor. Sinchi va merganlarga nisbatan ishlatiladigan bu o'xshatish iyun oyida bo'lib o'tgan Mudofaa vazirligi Merganlarni tayyorlash markazi jamoasining natijalarida ham o'z aksini topdi. Turkiya Respublikasida o'tkazilgan **11 davlatdan 36 ta jamoa ishtirok etgan "Eng ilg'or mergan" xalqaro musobaqasida** Turkiya, AQSh, Birlashgan Arab Amirliklari, Ozarbayjon, Pokiston, Bolgariya kabi dunyoning ilg'or armiyalari qatorida yurtimiz harbiylari ham munosib qatnashdi. Jamoamizdagi safdoshlarimizning yuqori professional tayyorgarligi va har bir shartdagi ko'rsatkichlari musobaqaning yakuniy natijasida o'z aksini ko'rsatdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, jamoamiz mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Xalqaro miqyosda erishayotgan yutuqlarimiz harbiy xizmatchilarimizni ham birdek ruhlantirgan bo'lsa ajab emas. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari Qozog'iston Respublikasida o'tkazilgan **"Birlestik - 2024" mintaqaviy xalqaro o'quvlarida** ishtirok etdi. Unda O'zbekiston va mezbon davlatdan tashqari Ozarbayjon, Qirg'iziston va Tojikiston harbiylari qatnashdi.

O'quvlar "Oymasha" poligoni va Tokmak burnidan 2 kilometr uzoqlikdagi dengiz maydonida bo'lib o'tdi. Mazkur hamkorlikdagi xalqaro o'quvda ishtirokchi davlat harbiy bo'linmalari qurolli mojarolarni bartaraf etish bo'yicha qo'shma operatsiyani o'tkazdi. Shuningdek, boshqa davlatlar armiyasi bilan tajriba almashish, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli keskin vaziyatlarga doimo shay turish, eng so'nggi texnologiyalar yordamida harbiy xizmatchilar ko'nikmalarini muntazam ravishda oshirib borishga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur o'quvlar mintaqada harbiy hamkorlik va strategik sheriklikni mustahkamlash yo'lidagi muhim



qadam bo'ldi, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Shuningdek, ushbu oyda Toshkent harbiy okrugining "Markaz" desantchilar tayyorlash bazasida doimiy ravishda soha mutaxassislarining bilim va malakalarini mustahkamlashga qaratilgan o'quv kurslari tashkil etildi.

Darvoqe, artilleriya davlatimiz xavfsizligining daxlsizligini ta'minlovchi, milliy armiyamizning salohiyatini oshiruvchi qo'shin turlaridan biri sanaladi. Doimiy o'tkazib kelinadigan o'quv mashg'ulotlari jangovar tayyorgarlikni yanada oshirish imkoniyatini beradi. Bu galgi "Trevoga" ham Mudofaa vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan artilleriya qo'shinlarining hushyorligini yana bir bor sinovdan o'tkazdi.

**YIG'IN NUQTASI** Markaziy harbiy okrugning "Kattaqo'rg'on" dala-o'quv maydoni etib belgilandi. "Trevoga" signalidan so'ng Toshkent, Markaziy hamda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okruglardan yo'lga otlangan soha mutaxassislari dastavval harbiy texnikalarni temiryo'l platformasiga yuklashga kirishdi. Dastlab temiryo'l bekati, shoxobchasi va aeroporti harbiy harakatlar tarkibiy bo'limiga mutaxassislar tomonidan yo'riqnoma o'tilib, harbiy texnika va harbiy yuklarni temiryo'l harakatchan tarkibi (vagon)ga yuklash bo'yicha ko'rgazmali mashg'ulotlar o'tkazildi.

Bu oraliqda Kattaqo'rg'on garnizonidagi harbiy qism shaxsiy tarkibi ham yuqori jangovar shay holatga keltirib, uzoq masofaga avtoyo'l orqali marsh amalga oshirildi.

Sentabr oyi ham harbiy xizmatchilar hayotida muhim vazifalar ado etilgani bilan esda qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining

professional serjantlar korpusi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan Mudofaa vazirligi qo'shinlarida yangi "bosh serjant" va "bosh serjant yordamchisi" lavozimlari joriy etildi. Ular serjantlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar orasidan alohida tanlov asosida saralab olinishi; Termiz garnizoni harbiy xizmatchilarining "Termiz" umumqo'shin poligonidagi o'quv nuqtalarida jismoniy hamda ruhiy zo'riqish to'siqlarini yengib o'tish, tibbiy tayyorgarlik, aloqa vositalaridan foydalanish, muhandislik nazorati, hudud xaritasi bo'yicha ishlash bo'yicha sinovlarni topshirishi shular jumlasidandir. Eng asosiysi, har bir guruh, vzvod va batalyon turlicha topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarib, ko'zlangan maqsadga erishdi.

Bu yil muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan "Kembriya patruli" musobaqasi ham biz uchun ancha omadli keldi. Joriy yilgi musobaqalarda **30 dan ortiq** mamlakat, jumladan, Buyuk Britaniya, AQSh, Fransiya, Hindiston, Germaniya, Italiya, Latviya, Qozog'iston, Turkmaniston va boshqa davlatlardan **100 dan ortiq** jamoa ishtirok etdi. Har bir jamoa **80 kilometr dan ortiq** masofani bosib o'tib, eng murakkab tabiiy va taktik to'siqlarni yengdi. Har **8-10 kilometrda** marshrutning turli joylarida ishtirokchilar kimyoviy va biologik tahdid sharoitida harakat qilish, hujum operatsiyalari va murakkab joylarda yo'nalishni topish kabi jangovar vazifalarni bajardi. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi jamoasi yuqori darajadagi professionallik va hamjihatlikni namoyish etib, o'z guruhida **13 ta jamoa** orasida birinchi o'rinni egalladi. Ular barcha bosqichlarda zararlangan hududlardan muvaffaqiyatli tarzda o'tib, taktik operatsiyalardagi mahoratini

ko'rsatib, marshrutni birinchilar safida yakunladi. Yo'l-yo'lakay 4 ta rekordni yangilab o'tishgani tahsinga loyiq.

Umumiy natijalarga ko'ra, O'zbekiston jamoasi kumush medalga sazovor bo'ldi.

**OKTABR OYI** Markaziy harbiy okrugning "Forish" tog' poligonida O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari Mudofaa vazirliklarining harbiy xizmatchilari ishtirokida qo'shma harbiy mashg'ulotlar yuqori tayyorgarlik va saviyada o'tkazilishi bilan yodda qoldi. O'quv-mashg'ulotlar davomida ikki davlat harbiy xizmatchilari jangovar vaziyatda bo'linmalarni hamkorlikda boshqarish, davlat chegarasining daxlsizligini ta'minlash va shartli dushmani yo'q qilish kabi turli jangovar harakatlarni olib bordi. Maqsadlarning mushtarakligi, urf-odatlarining uyg'unligi esa bir musht bo'lib harakatlanishga xizmat qildi.

Darvoqe, yurt himoyachilarining jangovar-ruhiy tayyorgarligini mustahkamlash, xizmat faoliyatida erishgan yutuqlarini munosib rag'batlantirish, harbiy okruglar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida **"Amir Temur jangovar bayrog'i uchun"** musobaqasining joriy yilgi bahslarida ham barcha harbiy okrug qo'shinlari kurashga bel bog'ladi. Mazkur bellashuvlarda eng yuqori natijalarga erishgan harbiy okrugga ona Vatanga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik va harbiy sharaf ramzi bo'lgan "Amir Temur jangovar bayrog'i" tantanali tarzda topshiriladi.

Yuqoridagi jarayonlar sanoqning bir qismi xolos. Sanalmaganlari ortidagi mehnat va mashaqqatning o'zi ham bir tarix. Eng asosiysi, yil barchamizni shaffof imtihon qildi va biz undan muvaffaqiyatli o'ta oldik. Yangi yilda ham biz yorug' yuz bilan bundan-da yuqori va zalvarli cho'qqilar zabt etishni maqsad qilganmiz!

**Kapitan Bobur ELMURODOV**



## Harbiy ta'lim



# SHONLI TANKCHILAR

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti 1918-yil 16-noyabrda Nijniy Novgorod shahrida piyoda qo'shinlari uchun komandirlar tayyorlash kurslari shaklida tashkil etilgan. 1966-yilda bilim yurtiga oliy o'quv yurti maqomi berilib, o'qish muddati 4 yil etib belgilandi va uning birinchi bitiruvchilari 1970-yilda ofitserlik hayotiga yo'llanma olgan. 1993-yilda Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti nomi berilgani natijasida u profilli oliy harbiy ta'lim muassasasiga aylantirildi. Mustaqillik yillarida Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar tufayli hozirgi kunga qadar mazkur muassasadan 10 nafardan ortiq general, mudofaa vaziri, harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni va qo'shilma komandiri yetishib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Mudofaa vazirligi rahbariyatining qo'llovi natijasida bilim yurtida zamon talablariga mos ko'p qavatli o'quv binosi, **400 o'ringa** mo'ljallangan kursantlar yotoqxonasi yangidan qurib bitkazildi, qolgan inshootlar kapital ta'mirlandi. Bundan tashqari, o'quv jarayonida kursantlar foydalanishi uchun zamonaviy o'quv trenajyorlari o'rnatildi, harbiy texnika, qurol-aslahalar hamda moddiy baza bilan ta'minlandi.

Ta'lim muassasasida malaka oshirish fakulteti mavjud. Taktika, Quruqlikdagi qo'shinlar havo hujumidan mudofaa taktikasi, Texnik ta'minot, Jangovar ta'minot, Jismoniy tayyorgarlik va sport, Artilleriya, Qo'shinlar kundalik faoliyati va qo'shinlarni boshqarish, Gumanitar fanlar, Tabiiy-ilmiy fanlar, Umumtexnika fanlari, Tillar, Qurollanish va otish kafedralarida **200 nafarga yaqin** professor-o'qituvchi qo'shinlar taktik qo'mondonligi hamda qo'shinlarning taktik qo'mondon-muhandisligi (*qo'shin turlari bo'yicha*) bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kursantlariga saboq berib kelmoqda.

Qo'shinlar taktik qo'mondonligi yo'nalishi 4 yillik o'quv rejasidan iborat bo'lib, tank qo'shinlari, artilleriya, maxsus operatsiya kuchlari, havo-desant qo'shinlari ixtisosliklarini o'z ichiga olgan. Besh yil o'qitiladigan qo'shinlarning taktik qo'mondon-muhandisligi yo'nalishida avtomobil bo'linmalari, raketa-artilleriya qurollari va o'q-dorilari, tank qo'shinlari (*muhandis*) hamda zenit-raketa qo'shinlari mutaxassislari tayyorlanadi. Auditoriyalar soni **112 ta** bo'lib, bu o'quv jarayonini bir smenada olib borish uchun yetarli. Kompyuterli auditoriyalar soni **7 ta**, **1 400 ta o'ringa ega 5 ta turarjoy** (*yotoqxon*) mavjud. **1 200 o'ringa** mo'ljallangan ovqatlanish majmuasi kursantlar uchun beminnat xizmat ko'rsatmoqda. Shuningdek, **2 ta** yopiq sport majmuasi, **4 ta** ochiq sport shaharchasida jismoniy tayyorgarlik uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

## BITIRUVCHILARNING BARCHASIDA IJOBIY BAHO

– Bilim yurtida o'quv, uslubiy va ilmiy ishlar tasdiqlangan o'quv reja va dasturlari talablariga muvofiq tashkil etilgan, – deydi bilim yurti boshlig'ining o'quv

va ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari polkovnik Sobirjon Abdurayimov. – Harbiy-siyosiy vaziyat tahlilidan kelib chiqib, otish tayyorgarligi fanining o'quv dasturiga mudofaa, hujum va qo'shinlarning maxsus harakati jangiga oid o'qotar qurollar va jangovar texnikalardan tayyorgarlik darajasini aniqlash mashqlari kiritildi. Buning uchun dala-o'quv maydonida **yangi otish yo'nalishlari barpo etildi**. Mudofaa, hujum janglariga oid o'qotar qurollardan otish mashqlarini bajarish takomillashtirildi. Joriy yilning sentabr-noyabr oylarida bilim yurtida tahsil olayotgan qo'shinlarning taktik qo'mondonligi yo'nalishi 3-, 4-bosqich kursantlari bilan artilleriya olovini korrekcirovka qilish bo'yicha **42 soatlik** va aviatsiyani yerdagi nishonlarga yo'naltirish bo'yicha **30 soatlik** dasturlar asosida **fakultativ mashg'ulotlar tashkillashtirildi**. 2021/2022-o'quv yilidan bilim yurtida Tojikiston Respublikasi, 2023/2024-o'quv yilidan esa Qirg'iz Respublikasi harbiy xizmatchilarining **yangi ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olishi yo'lga qo'yildi**.

Qo'shinlar (*o'quv, ishlab chiqarish*) **amaliyoti, yashovchanlik kurslari, dala chiqishlari soni va davriyligi oshirildi**. Xususan, barcha yo'nalish kursantlari bilan Mudofaa vazirligi qo'shinlarida **qo'shin va o'qub-ishlab chiqarish amaliyoti 5 marotaba oshdi**. Kursantlar bilan turli sharoitlarda (*Yangiariq, Chimyon, Maydon, G'azalkent*) yashovchanlik kurslaridan o'tish 2-bosqichdan boshlab va o'qish davomida **3 marotaba** tashkillashtirilmogda. Kelgusida yashovchanlik kurslarini barcha ta'lim yo'nalishlari bilan o'tkazish rejalashtirilmoqda. Oldinlari yashovchanlik kurslari umuman tashkillashtirilmagan. 4 yillik kursantlarda 1 marotaba qo'shin amaliyoti va 5 yillik muhandislarida 2 marotaba o'quv-ishlab chiqarish amaliyoti o'talgan.

Barcha bosqich kursantlari bilan **dala-o'quv maydonida yashagan holda haftalik amaliy mashg'ulotlar** tashkillashtirish yo'lga qo'yildi. **O'quv dasturiga "Berkut" parashyuti bilan sakrash mashqi** hamda turli usullarda

**desantlashtirish bo'yicha 32 soatlik mashg'ulot kiritildi**. Qo'shinlar taktik qo'mondonligi yo'nalishi artilleriya ixtisosligi kursantlari bilan **"Kattaqo'rg'on" poligonida 1 oylik dala chiqishi** kutilgan samarasini beryapti. Uzoq masofaga (*40–60 km*) piyoda yurish bilan majmuaviy taktik mashg'ulotlar 2-bosqichdan boshlab o'tkazilishi yo'lga qo'yildi, oldingi dasturlarda ushbu o'quvlar faqat bitiruvchi bosqich kursantlari bilan 1 martagina o'tkazilgan. Haftaning shanba kunlari barcha kursantlar shaxsiy tarkibi bilan **5 va 10 km.ga kross va marsh (brosok) yugurish** joriy qilindi.

Harbiy fanlar doktori, professor polkovnik Sobirjon Abdurayimovning ta'kidlashicha, bitiruvchilarning uslubiy tayyorgarligini rivojlantirish maqsadida Chirchiq garnizonida joylashgan harbiy qismlarda **jangovar tayyorgarlikning asosiy fanlaridan mashg'ulot** o'tiladigan bo'ldi. Bundan tashqari, quyi bosqich kursantlari bilan mashg'ulotlarda bitta mavzuni yoritish uchun bitiruvchi bosqich kursantlarining **o'qituvchilar bilan dublyor sifatida mashg'ulot o'tishi** yo'lga qo'yilgani ijobiy natija beryapti. 2024-yilgi bitiruvchilarga ilk ofitserlik xizmatini boshlagan qo'shinlardan kelgan taqrizlarda ijobiy baholar berilgan. 2023-yili bitiruvchilarning ba'zilar ayrim mezonlar bo'yicha hatto ikkitadan qoniqarsiz bahoga loyiq ko'rilgan bo'lsa, 2024-yilgi taqrizlarda birorta qoniqarsiz baho olmagani quvonarlidir.

Chet tillardan **yakuniy nazorat** kursantlarning xorijiy tillarni bilish darajasini aniqlashning xalqaro tizimiga asoslangan **4 ta ko'nikma (tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish) asosida** amalga oshirilishi natijasida 2024-yilning o'zida 21 nafar kursant C1, B2 va B1 darajali sertifikatlariga ega bo'ldi. Professor-o'qituvchilarga ham xorijiy tillarni o'rgatish, soha bo'yicha ma'lumotlarni birlamchi manbalardan olib tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida chet tillardan fakultativ mashg'ulotlar o'tkazilmoqda.

Barcha bosqich kursantlari "Ustozshogird" an'anasi asosida bilim yurti rahbariyati va o'qituvchilarga





Muallif suratga olgan

# BILIM YURTI

biriktirilgan. Bu bilan cheklanib qolmay, keyinchalik ularning boshlang'ich ofitserlik xizmatidagi faoliyati o'rganilib, tahlil qilib borilmoqda. Xususan, bilim yurtini 2024-yilda tamomlab, Mudofaa vazirligi maxsus operatsiya bo'linmalari va Chirchiq garnizonida joylashgan havo-desant hamda artilleriya qo'shinlarida harbiy xizmatni o'tayotgan yosh leytenantlar bilan 2024-yilning 27-sentabr kuni **"Yosh leytenantning kursant ukasiga aytadigan gapı bor"** mavzusida davra suhbatı, ochiq muloqotlar o'tkazildi. Bundan tashqari, o'tgan yili bilim yurtini bitirgan yosh ofitserlar bilan **"leytenantlar slyoti"** o'tkaziladi. Bilim yurtining doimiy ravishda takomillashtirib kelinayotgan o'quv-moddiy bazasi, jumladan tank direktisasi, trenajyorlari boshqa kuch tuzilmalariga ham xizmat qilmoqda.

2024-yilda bilim yurti **malaka oshirish fakultetining 13 ta o'quv kursida 500 nafardan** ortiq harbiy xizmatchi tahsil oldi. "Zirhli tank texnik xizmati ofitserlari", "Avtomobil xizmati ofitserlari", "Saf bo'limi xizmati ofitserlari", "Havo-desant xizmati ofitserlari", "Kadr organi ofitserlari", "Artilleriya mutaxassis-ofitserlari", "Taktik boshqaruv bo'g'inidagi ofitserlar", "Qo'shinlar xizmati soha mutaxassis-ofitserlari", "Aerorazvedka mutaxassislarini tayyorlash", "Bosh serjantlarni qayta tayyorlash", oliy ma'lumotli serjantlar bilan "Ofitserlarni tayyorlash kursi" hamda "Vzvod (batareya) yo'riqchi serjantlari" o'quv kurslari shular jumlasidan.

Uslubiy ishlar rejasiga muvofiq, 2024-yil fevral va sentabr oylarida komandirlik tayyorgarligi tizimi asosida professor-o'qituvchilar tarkibi bilan o'quv-uslubiy yig'inlar o'tkazildi. Ustoz-murabbiylarning kasbiy bilim va pedagogik kompetentligini baholab borish va ularning o'z ustida ishlashini ta'minlash maqsadida har oyda test sinovlarini qabul qilish amaliyoti joriy qilindi.

2024-yilda **11 nafar yosh o'qituvchi** kafedralarning malakali o'qituvchilariga biriktirilib, qisqa muddat ichida ular bilan sinov mashg'ulotlari tashkil etildi va mashg'ulotlar o'tkazishga ruxsat

berildi. Pedagog kadrlarning malakasini oshirish rejası to'liq bajarildi. Darslik, o'quv va uslubiy qo'llanma materiallarini ishlab chiqish sezilarli darajada oshdi. O'tgan yili **133 ta** o'quv adabiyoti tayyorlangan bo'lsa, joriy yilda ularning soni **169 taga** yetdi.

Professor-o'qituvchilar faoliyatini takomillashtirish maqsadida 2023/2024-o'quv yili yakuni bo'yicha har bir pedagogning mahorati tegishli komissiya tomonidan o'rganilib, baholandi. Natijada murabbiylar tarkibining xizmat majburiyatlariga mas'uliyati oshishiga erishildi. Urganch shahrida joylashgan Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyning o'quv dasturlari hamkorlikda ishlab chiqildi va bilim yurtining ilmiy-uslubiy kengashida ko'rib chiqilib, mazkur litseyning ta'lim jarayoniga tatbiq qilindi. Litseyda bilim yurtining o'quv-tarbiyaviy jarayonini targ'ibot qiluvchi sinf yaratildi. Bilim yurtini kamida magistr diplomiga ega harbiy o'qituvchilar bilan butlashga erishildi.

## ILMIY SALOHIYAT YUKSALYAPTI

Bilim yurtida 2024-yilda ilmiy ishlar va innovatsion faoliyat yo'nalishida **4 ta** xalqaro va **50 ta** respublika miqyosidagi anjuman, ilmiy seminar, davra suhbatı o'tkazildi. Ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etilgan mustaqil izlanuvchilar soni **61 nafarni** tashkil qiladi. Bilim yurtida oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti ochilmagan bo'lsa-da, oxirgi ikki yilda **5 nafar** o'qituvchi dissertatsiya himoya qilib, pedagogika, fizika-matematika va texnika fanlari bo'yicha falsafa hamda fan doktori ilmiy darajalarini oldi. Bu yo'nalishda 2025-yilda **12 kishi** tadqiqot ishini himoya qilishi rejalashtirilgan. Bugungi kunda bilim yurtida **93 (2023-yili 61) nafar** professor-o'qituvchi ilmiy unvon va ilmiy darajaga ega.

"Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohibi kapitan Zayniddin Odashevning qayd etishicha, bilim yurtidagi yosh olimlar kengashi negizida 2024-yilda **"Yosh olimlar innovatsion sinfi"** barpo etildi. Natijada innovatsion, startap va amaliy loyihalar soni keskin oshib, taqdim etilgan **13 ta** innovatsion

loyihadan **9 tasi** Innovatsion rivojlanish agentligi texnik ekspertisasi tomonidan navbatdagi bosqichga o'tkazildi. 2023-yilda **5 ta loyiha** o'z vaqtida bajarilgan.

Bilim yurtida 2022/2023-o'quv yilida o'quv-moddiy bazani rivojlantirishga oid **45 ta**, 2023/2024-o'quv yilida **52 ta** ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishi bajarilgan. Uchuvchisiz uchish apparatlarini uzoq masofadan elektromagnit impuls yordamida qo'lga olish moslamasini ishlab chiqish, jangovar bo'linmalar uchun harbiy xizmatchining jangovar qobiliyatini oshirishda, jarohatlanishdan saqlashda yengil, qulay **himoya nimchalarini yaratish**, havo-desant tayyorgarligi trenajyorini yaratish, harbiy avtomobillar tirsakli vallarini ta'mirlashning innovatsion usuli va mobil dastgohini ishlab chiqish, Gologramma yordamida bo'lajak ofitserlarni psixologik maxsus tayyorgarlikdan o'tkazuvchi **7D gologramma simulyatorli** amaliy trenajyorini ishlab chiqish, jangovar vaziyatlarda zararlangan hududlarda razvedka ishlarini olib boruvchi yo'l tanlamas **"jangovar mashina" yaratish**, Tank-zenit pulemyotidan o'rnatma stvol maqsadida foydalanish uchun moslama loyihasi, T-72 tank dvigatelini turli usullar bilan o't oldiruvchi kompyuter simulyatorini ishlab chiqarish va o'quv jarayoniga joriy etish, tank-zenit pulemyotidan o'rnatma stvol maqsadida foydalanish uchun moslama loyihasi shular jumlasidan. Ilmiy salohiyatni oshirish va tajriba almashish maqsadida bugungi kunda respublikamizdagi **42 ta** oliy ta'lim muassasasi bilan hamkorlik o'rnatilgan.

## XALQARO YUTUQLAR – FAXRLI NATIJALAR

Bilim yurti kursantlari xalqaro musobaqalarda munosib qatnashmoqda. Xususan, 2024-yilning 6–12-oktabr kunlari bilim yurti va Pokiston Islom Respublikasi harbiy akademiyasi kursantlari o'rtasida ilk bor o'tkazilgan xalqaro kross yugurish musobaqasining barcha yo'nalishlari bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarning kursantlari o'rtasida harbiy-kasbiy tayyorgarlik bo'yicha may oyida o'tkazilgan VIII Xalqaro olimpiadada bilim yurti jamoasi (Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iz, Qurolli Kuchlar akademiyasi) I o'ringa sazovor bo'ldi.

2024-yilning 3–15-oktabr kunlari qo'shinlarda **"Men g'olib!"** shiori ostida o'tkazilgan musobaqalarning **"Eng ilg'or tankchilar guruhi" yo'nalishida I o'rin**, "Eng ilg'or ta'mirlash guruhi"da II o'rinni egalladi. "Eng ilg'or tog' ishg'ol guruhi", "Eng ilg'or desantchilar guruhi", "Eng ilg'or zenit guruhi"da esa kuchli uchlikdan joy oldi. Respublika oliy harbiy ta'lim muassasalari o'rtasida o'tkazilgan matematika va chet tili fanlaridan olimpiadalarda II o'rinni qo'lga kiritdi.

Bitiruvchi bosqich kursantlari bilan Qurolli Kuchlar modellashtirish va simulyatsiya bo'yicha tadqiqotlar dala-o'quv markazida ikki tomonlama (Qurolli Kuchlar akademiyasi bilan) uch bosqichli **qo'mondonlik-shtab kompyuter o'quvlari** o'tkazilmoqda. Joriy yilning aprel oyida o'tkazilgan o'quvda bilim yurti jamoasi g'olib bo'lib, ko'chma kubokni qo'lga kiritdi. Dekabr oyida Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy ta'lim muassasalari o'rtasida kechgan "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanloving Mudofaa vazirligi bosqichida bilim yurtining **"Quvnoq tankchilar"** jamoasi faxrli 1-o'rinni egalladi.

Yosh olimlar tomonidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi ko'magida 2024-yilda respublikamizdagi **35 ta** innovatsion tanlov va ko'rgazmalarda sovrinli o'rinlar qo'lga kiritildi. Bilim yurtida **24 ta yo'nalish bo'yicha** to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan hamda 2024-yilda **"Artilleriya olovining korrektilirovkachisi"** va **"Uchuvchisiz uchish apparatlarini boshqaruvchi yosh operator"** yangi to'garagi ochildi. Bugungi kunda **450 nafar kursant** jalb etilgan mazkur to'garaklar haftaning dushanba, chorshanba va juma kunlari soat 15.00 dan 17.00 gacha faoliyat yuritadi.

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtining bir kunlik faoliyati bilan yaqindan tanishib qaytar ekanmiz, o'quv maskanida harbiy soha uchun har tomonlama yetuk, yuqori malakali ofitserlar, shonli tankchilar tayyorlanayotganiga amin bo'ldik. Bilimga chanqoq, tirishqoq bitiruvchi kursantlarning qo'shinlardagi xizmati munosib baholanayotgani ushbu sa'y-harakatlarning samarasi, fikrimizning yaqqol tasdig'idir.

**Katta leytenant  
Dilshod RO'ZIQULOV,  
"Vatanparvar"**



## Qahramonlar nomi barhayot



# MARDLIK



## QAHRAMON ONAMAN

– Bilasiz, ona farzandlarining barchasini birdek suyadi, ularga birdek mehr beradi, – deydi Manzura aya Eshtemirova. – Ammo aynan qaysidir bolasiga ko'proq muhabbat qo'yar ekan. Bu o'zingizga bog'liq bo'lmagan, sirli holat. Muhiddin dunyoga kelganida kuchdan qolish o'rni quvvatga to'lganman. Ko'nglim shunaqangi ravshan tortgandiki, bu ne sinoat bo'ldi, deganman o'shanda. Kunlar oylarni, oylar yillarni ortidan ergashtirib, u aka va opalaridek kamol topdi. Kuchga to'ldi. Bo'yi o'sdi. Ishonsangiz, ko'chada bolalar bilan o'ynab, jarohat olsa, aslo shikoyat qilmasdi. Hamisha eng zo'ri bo'lishga intilardi. Ming afsuski, bolamning bu dunyodagi rizqi qisqa ekan, yorug' olamni erta tark etdi. Lekin o'zidan nom qoldira oldi. Hatto meni ham qahramon ona qilib ketdi. U g'animlarga tik boqqan. Qo'rqmadi, qaytmadi, tarbiyamni behuda ketkazmadi. Chunki Muhiddin bilardi, agar yurtfurushlar o'zidan o'tsa, oilasi, yaqinlari va eng asosiysi, Vatani tinchligiga xavf tug'dirardi. U ana shularni o'ylab, qo'liga qurol olgan. O'g'limni hamisha sog'inaman. Nafasini qo'msayman. Ayrim holatlarda qalbinga taskin berish uchun, o'rtadagi firoqni kamaytirish maqsadida xonamning devorida osig'liq turgan suratlariga uzoq termilaman, u bilan xayolan gaplashaman. Safdoshlari tez-tez yo'qlab turadi. Har safar eshikdan kirib kelgan harbiy xizmatchi qiyofasida farzandimni ko'rganday bo'laman. Demakki, Muhiddin halihamon yashayapti. U bugun yurt deya tunni tongga ulayotgan, bedor bo'lgan, alaloqibat sarhadlar daxlsizligini ta'minlashga kamarbasti azamatlar ko'rinishida xizmat qilyapti.

Manzura aya Muhiddinni tuproqqa bergach, ko'p vaqt o'zini qo'yarga joy topolmay yurdi. Savdoyi bo'lib qoldi. Bo'lmag'ur o'ylar, shaytoniy vasvaslar uni ich-ichidan kemirardi. Ikki kunda qaddi egildi. Dilbar ayoldan asar ham qolmadi. Ko'zidan nur, so'zidan muhabbat, yuzidan fayz ketdi. Sochlarining chetlari bir tunda oqardi. Ko'zlari osti osildi, peshonada qatorlab chuqur ajinlar paydo bo'ldi. Umuman og'rimagan tana a'zolari qaqshay boshladi. Yuragi ezilardi. Yolg'iz qolib, o'g'lining kiyimlarini bag'riga bosgancha ko'zyosh to'kardi. Ayol bo'lgan voqealarda o'zini aybladi. Sababi Muhiddin atigi bir hafta burun uyga ta'til olib kelganda farzandi bilan

ko'proq suhbat qurmagan, so'zlarini esa jiddiy qabul qilmagandi. O'shanda jigarbandi:

– Ona, izn bersangiz, uylanmoqchiman, kelin olamiz, – dedi. – U xizimatingizni qiladi. Qarasam, hech shu haqda gap ochmayapsiz. Endi aybga buyurmaysiz, o'zim jazm etyapman. Bizdan rozi bo'lsangiz bo'ldi.

Muhiddin o'zining gapidan o'zi uyaldi, yuzi qizarib, xijolat tortdi.

Ayol bolasining so'zlarini hazil, deb qabul qildi, so'ngra jilmaydi, yelkasiga ohista turtadi, chakkasini siladi. Bolalardek ko'zlari porlagan Muhiddin volidasining mayin, yumshoq qo'llarining kaftini lablariga bosib, o'pdi. Manzura aya o'shanda o'g'lining issiq nafasini his etgandi. Keyin xayrlashildi.

– Kelaman, – dedi Muhiddin eshikdan chiqib ketar ekan, yelka osha so'nggi bor onasiga qarab. Keyin daf'atan ma'yus tortdi. Chuqur xo'rsindi. Qadamlari og'irlashdi. Ehtimol, o'shanda u qalbida tug'yon urgan tuyg'ularini onasiga sezdirmaslik uchun ortiga boshqa o'g'irilmagandir.

Manzura aya ana shu xayr-xo'shni unuta olmadi, esda saqlab yurdi. Go'yo Muhiddin darvozani ochib, "Keldim, ona!" deyishini kutdi. Chunki onalar uchun farzand hech qachon o'lmaydi.



## VATAN UCHUN TO'KILGAN QON, UZILGAN JON BEHUDA KETMAYDI

– Esimda, Muhiddin uyga shodan kirib keldi, – deydi opasi Dilrabo Eshtemirova. – Egniga harbiy libos kiyib olgan. O'ziga rosa yarashib turibdi. Yanada savlatli qilib qo'ygan. Qulochini keng yoygancha ko'zlari baxtdan porlab: "Opajonim, ukangizni tabriklamaysizmi? U endi Vatan posboni!" dedi. O'sha kuni ikkimiz ko'p gurunglashdik. Bolalikdagi sho'xliklarini esladik. So'ngra rejalarini aytdi. "Mendek yigitning opasi ekaningizdan hali rosa faxrlanasiz", degandi. Mana, bugun uning gaplari haqiqatga aylandi. Oilamizning, jamiyatimiz va davlatimizning faxri u. Tug'ilib o'sgan mahallamizga Muhiddinning nomi berilgan, ta'lim olgan tumandagi 7-umumta'lim maktabida esa byusti o'rnatildi. Ana shu maskanga borar ekanman, bu yerda o'qib-ta'lim olayotgan yoshlarga qarab, qachonlardir Muhiddin va men ular

1975-yil 12-sentabr tongi. Chamasi, soat uchdan o'tgan. Ochiq moviy gumbaz uzra bulutlar paydo bo'lgan, suzib yuribdi. Tashqarida dim havo. Uzoqdan xo'rozlarning qichqirgan ovozi quloqqa uriladi. Muazzin azon aytyapti. Ana shunda borliq qayta jonlana boshladi. Darz ketgan deraza oynasidan sizib kirgan oy yog'dusi Manzura opaning besh bolasini birdek, ohista allalab, erkalaydi. Uy ichida qator qilib solingan ko'rpachalarda o'g'il-qizlariga ona shafqat bilan, qalbidagi cheksiz muhabbat ila boqadi. Ammo belida turgan og'riq borgan sari ayolni azoblab, qaqshatadi. U bejo va quvvatsiz yog'ochlar orasidan, ilondek osilib, vishillab turgan xas-xashaklarga jonsiz boqadi. Ayol tongni kutyapti. Lekin vaqt bunday holatlarda tez o'tmaydi, to'xtagandek bo'ladi. Dard esa yanada zo'raydi. Ona boshqa chiday olmaydi. Endi u turmush o'rtog'i – Husan akaning yelkasidan turtadi.

– Dadasi, boshlandi chog'i, – ayolning ojizona, mayin ovozi uy ichidagi jimlikni tebratib yuboradi.

Husan aka darrov anglab, sergak tortadi...

Quyosh borliqni qizdirgan mahal yangi chaqaloq yig'isi atrofni chulg'ab oladi. Ko'ngillar ravshan tortadi. Onaning azobi tamoman bitadi.

Shunday qilib, Husan aka va Manzura opaning 6-farzandi o'g'il tug'ildi. Ota-ona ming bir orzu-umidlar ila chaqaloqqa elning sadoqatli va sodiq o'g'loni bo'ladi, hamisha xizmatini qiladi, koriga yaraydi, deb Muhiddin ismini berdi. Surxon o'lkasining nafis havosidan to'yingan, shafqat va muhabbatdan ko'zlari porlab turadigan Muhiddin aka-ukalari va opa-singillari orasida ajralib turardi. Baquvvat, tirishqoq, birso'zli va qat'iyatli, o'ziga xos fe'l-atvor egasi.

Ko'pdan buyon xayolimni bir savol band etadi: inson qancha umr yashashga haqli o'zi? To'g'ri, bu faqat Yaratgangagina ayon. Ammo bir narsa aniqki, ayrimlar yorug' olamga endi qadam qo'ygan mahalda – murg'akligidayoq daf'atan rizq-nasibasi qiyiladi, boshqasi gullagan, haqiqiy o'q bo'lib, nishonga tegaman, degan bir paytda yuragi to'xtaydi yoki to'xtatiladi. Yana kimdir asr bilan yuzlashib, besamar yashaydi va so'nggi nafasini og'rinib, azob va ming bir uqubat ichida chiqaradi. Albatta, bu qiyoslarni shunchaki keltirmayapmiz. Chunki oramizda shunday odamlar bor, qisqa hayot kechirsa-da, o'z umrini mangulikka muhrlagan. Ehtimol, ana shuning uchun ham qahramonlar nomi barhayot!



# MANGULIK

singari yugurib, oshiqib, shoshib darslarda yangi bilimlar olganimizni xotirlayman. Qo'llaridan ushlab, sinfxonasigacha olib borardim. Ishonasizmi, ukam o'lgani yo'q. O'lmaydi ham. Chunki u o'z nomini o'chmas qila olgan qahramonlardan. Bu bizga hamisha kuch beradi. Bolalarimning asl qahramoni ham – Muhiddin. Xohlagan jiyanimdan so'rasangiz, hammasi o'ylab o'tirmay, tog'amdek mard va qaytmas, fidokor bo'laman, deydi. Demak, Vatan kori uchun to'kilgan qon, uzilgan jon behuda ketmas ekan.

To'g'ri, o'lim haq. Qachon yakun bo'lishini esa hech kim bilmaydi. Ammo qanday ketish muhim. Shunchaki yashab, ko'rinmay, hech qanday foydangiz tegmay, bu dunyodan o'tasizmi yoki qahramonlarcha to'xtaysizmi? Muhiddinning qoni esa besamar to'kilmadi. U ona yurt tinchligi yo'lida to'lib-toshdi, qaynadi va to'xtadi.



## HAQIQIY ERKAK HAMISHA VATANINI HIMOYA QILISHI KERAK

– Muhiddin akam uyga kelganida uning harbiy liboslarini kiyib, ko'chaga chiqar edim va tengqurlarimga maqtanardim, – deydi ukasi Jasur Eshtemirov. – Ehtimol, mening ham harbiy sifatida xizmat qilishim uchun bu muhim rol o'ynagandir. Chunki u: "Haqiqiy erkak avvalo Vatani himoya qila olishi kerak. Ana shunda oilasi va yaqinlarining osoyishtaligini ta'minlagan bo'ladi", derdi. Akamning bu so'zlari hamisha menga kuch bergan, ilhomlantirib kelgan. 14 yil Qurolli Kuchlar safida xizmat qilib, bilimim, salohiyatim va kuch-g'ayratimni safarbar etdim. Yoshlar bilan uchrashuvlarda Sariosiyo va Uzun tumanlarining tog'li hududlarida sodir bo'lgan o'sha voqealar haqida gapirilsa, albatta, xizmatdoshlari qatori akamning ko'rsatgan jasorati eslanardi. Chunki qahramonlar unutilmaydi. Yillar, asrlar o'tsa-da, ular yod olinadi. Qalbimda unga bo'lgan mehr-muhabbat cheksiz. Jigarimni har vaqt sog'inaman. O'ziga xos fe'l-atvor egasi, gap-so'zlari, qat'iyatligini xotirlayman. Tengqurlari, sinfdosh-do'stlari to'planganda, meni ham davralariga chorlaydi. Bu akamga ularning hurmati hali-hamon yuqori ekanidan darak beradi.

## O'QLAR OVOZIDAN TOSHLAR PARCHALANADI

2000-yilda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarining tog'li hududlarida yuz bergan o'sha mudhish voqealar hali-hamon xalqimiz bag'rini tirnaydi. Unutilmaydi.

Shu kuni tong azoblanib, allaqanday dard bilan otdi. Quyosh ham ko'kka tutashib ketgan tog'lar ortidan istamay bosh ko'tardi. O'tkir nurlar zaminni erkalamadi, maysalarga hayot bag'ishlashdan chekinganday edi go'yo. Tinchlikka raxna solishni niyat qilgan bir guruh terrorchilar davlatimiz chegarasini buzib o'tishga harakat qilgandi. O'shanda asl o'g'lonlarimiz g'animlarning muqaddas zaminimizga bosgan oyoqlarini qirg'di. Nafaslarini birin-ketin to'xtatdi. Jon olinib, jon berildi. Dahshatli jangda mardlarimizning qurolidan otilgan har bir o'q gazandalarni ayovsiz yerga qulatardi. Yuraklar Vatan tinchligi deya tipirchilardi. Ko'zlar qonga to'lgan, qo'llar qattiq musht bo'lib tugilgan, nafrat va g'azab ming yillar chig'irig'idan o'tgan, haqiqiy botirlarning azm-u shijoatiga guvoh bo'lgan tog'-u toshlarni-da teshib, parchalardi. Terrorchilar butkul tor-mor etildi. Zamindan quvildi. Asosiy jang tugadi. Endi navbat ushbu hududni ko'zdan kechirish va berkinib olgan kalamushlarni tamoman tozalash edi. O'shanda Muhiddin Eshtemirov yovqur yigitlar bilan bir safda ana shu vazifalarni bajarishga jalb etildi.

Toshli yo'l. Qir, yonbag'irlar-u qalin archazorlarni pana qilib harakatlanayotgan guruh kutilmaganda pistirmaga duch keldi. Uch-to'rt qurollangan shaxs harbiylarimizni o'qqa tutdi. Guruh komandiri qarshi hujumni boshlash haqida buyruq berdi. To'xtovsiz qurollardan o'qlar otildi. Dahshatli, qasir-qusur tovuqlardan toshlar parchalanadi. G'anim to'xtadi. Quyosh yuzini bulut qoplab oldi. Ammo Muhiddinga kutilmaganda daydi o'q tekkandi. Vatanni sevish, shu zamin uchun ko'ksini qalqon qilish chin farzandlik burchi, deymiz. Demakki, serjant Eshtemirov ham ana shu burchiga so'nggi nafasiga qadar sodiq qoldi. U olgan jarohati sabab bu dunyoni erta tark etdi.

## BURCH HAMMA NARSADAN USTUN TURADI

– Men tog'amni eslay olmayman, – deydi uning jiyani DXX Chegara qo'shinlarida xizmat qilib kelayotgan kichik serjant Sherali Jo'rayev. – Chunki o'sha voqealar yuz berganda uch yoshda bo'lgan ekanman. Ammo esimni tanibmanki, Muhiddin tog'am haqida faqat yaxshi fikrlarni eshitaman. Demakki, kishi kam yashab ham, qalblarda mangu qolishi mumkin ekan, degan o'ylar meni hamisha jasoratga undab kelgan. Harbiy xizmatchi bo'laman, deganimda yaqinlarim qarorimni qo'llagan. Chunki bizning oiladan ayni kasbga qiziqish juda

yuqori. Men bugun tog'am bosib o'tgan yo'ldan dadil boryapman. U boshlagan xayrli ishlarning davomchisiman, deb bemalol ayta olaman. Ehtimol, u kabi qahramonlik ko'rsata olmasman ham, biroq men shu Vatan sarhadlarini so'nggi nafasim qolguncha himoya qilish uchun hamisha tayyorman. Bu bizning burchimizdir.



## KO'KSINI QALQON QILGAN MILLAT QAHRAMONIDIR

– Har bir insonda vatanparvarlik bo'lishi kerak, – deydi Surxondaryo viloyatining Termiz tumani Muhiddin Eshtemirov nomidagi mahalla raisi Komil Tojiyev. – Va uni amalda ham ko'rsata olish lozim. Bu yo'lda sodiq turganlar esa qahramonlardir. Muhiddin Eshtemirov ham millatning sheryuraklaridan edi. Ayni qaynagan, kuchga to'lgan, tog'ni ursa, to'qon qiladigan yoshda paymonasi to'lgan. Bu voqealarga ham, mana, yigirma to'rt yil bo'lyapti. O'shanda tug'ilgan chaqaloq hozir ayni zabardast va g'ayratga to'lgan yoshda. Tinch, osuda yurtda oldiga qo'ygan maqsad va rejalariga erishish uchun harakat qilib yashayapti. Muhiddin Eshtemirov singari o'g'lonlar qorako'z dilbandlarimiz kelajagi yo'lida ko'ksini qalqon qildi, jonini ayamadi. Yaqindan tanigan inson sifatida shuni aytishim kerakki, u o'ziga ishongan va marrani katta olib, shunga monand harakat qilib yashardi. Ham aqliy, ham jismoniy komillikka intilardi. O'z imkoniyatlarini oshirishga jiddiy ahamiyat qaratardi, natijalari ham shunga monand yuqorilardi. Vatan tinchligini asrash, sarhadlar daxlsizligini ta'minlashni o'zining muqaddas burchi va vazifasi ekanini erta anglagan.

## "KALAMUSHLAR" QOCHISHGA JOY TOPOLMAY QOLDI

– Biz u kunlarni sira ham unutmamiz, – dedi Qurolli Kuchlar faxriysi, zabiradagi III darajali serjant Bobomurod Nuratov. – Bunga xotiralarimiz aslo yo'l qo'ymaydi. O'shanda har birimiz o'lim bilan yuzma-yuz kelgandik. Ammo hech birimizda qo'rquv bo'lmagan. Nima qilib bo'lsa ham, yurtning tinchligiga raxna solgan gazandalarning jonini sug'urib olishimiz kerak edi. Shunday ham bo'ldi. Bizning kuchimizga, jangovar qudratimizga ishonmagan kelgindilarning kulini ko'kka sovurdik. Kalamushlar galasi qochishga joy topolmay, tog'-u toshlar orasida sargardon bo'ldi. Otgan o'qimiz nishonning qoq yuragiga joylandi. Bunday vaqtlarda odam o'zini ushlab tura olmas ekan. Chunki ortingizda Vatan, oila, yaqinlarning osoyishtaligi turardi. Bu sizga ham kuch, ham nafrat berar ekan. Faqat bir jihat qalbimizga qattiq og'ir botgan: bilasiz, surxon o'lkasi go'zal tabiatga, mehrirdaryo

xalqiga va o'z ijodiga ega. Bu yerda alp o'g'lonlar, kuragi yerga tegmagan polvonlar, chiroyda tengsiz dilbar qizlar tug'ilib, voyaga yetib kelmoqda. Ana shu zaminga, uning takrorlanmas tabiatini sayr-u sayohat qilib emas, qo'lga qurol olib kirib borganmiz. To'g'ri, biz harbiy xizmatchimiz, qolaversa, shu yurt farzandimiz. Vatan chorlasa, hamisha labbay, deymiz. Ammo... eslayman, men bilan jangda qatnashgan safdoshlarim haqiqiy o'g'lonlar edi. Biz o'shanda ularning ayrimlari bilan bir umrga xayrlashdik, ayrildik. Jonsiz tanalarini qo'llarimiz bilan yaqinlariga eltib berdik. Ammo qahramonlar umri behuda ketmadi. Chunki umrlar borki, yuz yil yashaydi, lekin na o'ziga va na o'zgalarga foyda keltiradi. Vatanni sajdagoh bilganlar esa olgan har nafasida unga sodiqligini, sadoqatini namoyon etadi.

Darhaqiqat, yurtning har bir qarich yerini asrab-avaylash er yigit uchun har qaysi zamonda va hamisha sharaffi burch hisoblangan. O'limidan so'ng "Jasorat" medali bilan taqdirlangan serjant Muhiddin Eshtemirov sadoqati, mardligi va sodiqligini xalqimiz hech qachon unutmaydi, qalblarda mangu yashaydi. Zotan, mardlik – manguulik.

## SHOXLARNI QIRQIB TASHLAB, DARAXTNING ILDIZINI QURITIB BO'LMAYDI

– Yurt bugungi xizmatimizni hech qachon unutmaydi, shuni bilasanmi, – dedi serjant Muhiddin Eshtemirov archa tanasiga suyanib, qurolini mahkam ushlab olgan safdoshiga qarab. – Bu g'animlar nimani o'ylab, rejalashtirgan o'zi? – Muhiddin endi qoshlarini chimirib oldi. Yuzi alamdan bo'zarib ketdi. Ko'kragi tez-tez ko'tarilib, tusha boshladi. Burun kataklari kengaydi. – Nahotki, armiyamizning kuch-qudratiga shubha qilgan bo'lsa? Axir bu bema'nilik va ahmoqlik emasmi?!

Quyosh qoya ortiga o'tdi. Uzoqdan nar kaklikning sayragani eshitildi. Archaning nafis hidi atrofni qamrab olgan. Guruh a'zolaridan ikki harbiy xizmatchi soqchi turibdi. Qolganlar taomlanmoqda. Kimdir yo'talib qo'ydi.

– Shu voqealar bitsin, uylanaman, – dedi Muhiddin. Endi uning ko'zlari allaqanday ravshan tortgandi. Qoraygan yuziga daf'atan qon yugurdi. Lablari jilmaydi. – Onamga ham bu haqda aytganman. Bir qizni ko'z ostimga olib qo'yanman. Ammo o'zidan hali roziligini olmadim.

Muhiddin oyog'i bilan yer chiza boshladi. Shunda sarg'imgir chang tepaga qarab tirmashdi. Havoda o'zgacha shakl paydo bo'ldi. Keyin o'ng qo'li bilan peshonasidan tushib kelayotgan terni sekin artib qo'ydi.

– Oila qilish kerak, bolam bo'lishini istayman. Uni ko'tarib katta qilsam deyman. Xullas, kelajakdagi rejalar shu, do'stim...

Ha, Muhiddin Eshtemirovning qalbida hali aytilmagan, amalga oshirilishi kerak bo'lgan bir olam istak va maqsadlari bor edi. Lekin yigirma yettinchi bahorini ko'ra olmagan o'g'lon ana shu kurtak otib kelayotgan rejalarini o'zi bilan yer qa'riga olib ketdi. Barchasi faqat uning qalbida qoldi. Bugun o'zbekning ming-minglab Muhiddinlari bor. Shoxlarni qirqib tashlab, daraxtning ildizini quritib bo'lmaydi. Chunki tomirlar juda chuqur ildiz otgan bo'ladi.

**Kapitan Shohrux SAIDOV,**  
"Vatanparvar"



# TO'QSABO NOSIRBEK TAQDIRI

To'qsabo Nosirbek Abdurahimbiy o'g'li.

1890-yili Buxoro shahrining Oqmachit guzari Mirzo Mustafko ko'chasida yashagan Abdurahimbiy xonadonida tug'ilgan. Millati o'zbek.

Otasi Buxoro amirligida turli lavozimlarda xizmat qilgan. Ukasi Ismoilbek Afg'onistonda yashagan. Nosirbek eski maktab va madrasa ta'limini olgach, amir qo'shinida qorovulbegi lavozimida ish boshlaydi. Inqilobga qadar Buxoro amirligida to'qsabo lavozimida xizmat qiladi.

Savdo-sotiq bilan shug'ullangan Abdurahimbiyning vafotidan so'ng o'g'li Nosirbek 1913-yili miroxo'r unvoni bilan amir saroyiga xizmatga olinadi. Oradan ko'p o'tmay, 1916-yili to'qsabo (*polkovnik*) unvoni bilan Buxoro shahri mudofaasi bo'limida xizmatni boshlaydi.

1918-yili Kolesov hujumiga qarshi, 1920-yili avgustda Qizil armiyaga qarshi janglarda o'z yigitlari bilan mardonavor kurashadi. Biroq zamonaviy qurollangan dushman kuchlari hujumiga amir qo'shini dosh bera olmaydi...

Natijada dodxohlar maxfiy tarzda bir guruh harbiylarga amirni Sharqiy Buxoroga ziyon-zahmatsiz yetkazishni, qolgan qo'shinga vaqtdan yutish uchun dushmani chalg'itib, mudofaa janglari olib borishni buyuradi. Nosirbek Abdurahimov maxfiy guruh bilan birga amirni sog'-omon Dushanbe shahriga, undan so'ng Afg'oniston hududiga olib boradi. Biroq afg'on hukumati bolsheviklar bilan kelishgan holda avval bergan harbiy yordam va'dasini bajarishdan voz kechadi. Faqat amirning salomatligini kafolatlab, uning atrofidagi harbiy mulozimlaridan Afg'oniston hududini zudlik bilan tark etishni talab qiladi.

Nosirbek 1920-1923-yillarda Buxoro amiri bilan birgalikda Afg'onistonda yashaydi. Buxoro davlatiga sodiq harbiylar amirni shunday holda tashlab ketish xavfiligini tushunib, atrofdagi qishloqlarga tarqalib, qo'nim topishga va zarur paytda amir himoyasiga chiqishga qaror qiladi.

Mazkur sharoitda Nosirbek to'qsabo Kobuldagi Rastag bozorida savdo ishlari bilan shug'ullana boshlaydi.

Afg'on hukumati Amir Olimxonning harbiy mulozimlariga nisbatan siquvni kundan kunga oshirib boradi. Hatto ularni tutgan zahoti otib tashlashgacha borib yetadi. Vaziyat og'irlashib borar ekan, Amir Olimxon o'zi bilan kelgan sadoqatli kishilarning qasamyodini bekor qilib, kim qayerni tanlasa, ketaversin, deb qaror chiqaradi.

**SHUNDAY BIR SHAROITDA** Nosirbek to'qsabo Doniyorbek, Abdujabborbek to'qsabolar bilan maslahatlashib, Buxoro Xalq Respublikasi hukumatining umumiy afv to'g'risidagi qaroriga ishonib, 1923-yili Vatanga qaytishga qaror qiladi.

Fayzulla Xo'jayev hukumati dastlab Vatanga qaytganlar mulklarining ma'lum qismini qaytarib ham beradi. Biroq Buxoro hukumatining obro'sini to'kib, o'z mavqeyini oshirishni istagan bolshevik harbiylar ularning barchasini jismonan yo'q qilishga kirishadi.

Nosirbek to'qsabo Abdurahimov 1925-yil 14-aprelda aksilinqilobiy faoliyatda ayblanib, qamoqqa olinadi. Qariyb besh oydan ortiq davom etgan jismoniy qiynoq va tahqirlar ostida o'tgan tergovlar vaqtida Nosirbek o'ziga qo'yilgan ayblovlarining birortasini tan olmaydi. Shunga qaramay, 1925-yil 4-sentabr kuni O'zSSR JKning 61-, 67-, 69-moddalari qo'llanib, 3 yilga Soloves lageriga surgun qilinadi. 3 yil umrini Solovesda, yana 3 yilini

Kustanadagi sho'rolarning mash'um qiynoqxonalari o'tkazadi.

**TAQDIR SHAMOLI** uni 1934-yili ona shahriga qaytaradi. Nosirbek sog'lig'ini tiklab olgach, Buxorodagi "O'zbekiston" mehmonxonasiga qorovul bo'lib ishga kiradi. Mehmonxonaning farroshi Zaynab Magomedova ismli ayolga uylanib, uning 7 yoshli qizini qaramog'iga oladi. Ammo guzarkom, kolxozchi ko'rinishidagi mal'un NKVD xufiyalari ta'qib qilar, uning har bir so'zi, harakatlari haqidagi ma'lumotlar kerakli idoralarga yetib turardi. Bu chaquvlarda Nosirbek Abdurahimbiy o'g'lining quyidagi so'zlari ham bor edi. 1937-yilning may oyida kolxoz bozori oldidagi choyxonada "...yo'qsillar inqilobi natijasida nima o'zgardi? Unga ishongan yo'qsillarning hammasi bir-bir ochidan o'lyapti, shumi kommunistlarning?", sentabr oyida esa "...sovetlarning Buxoroyi sharifda na joy nomlarida, na boshqaruvda o'zbek tilini umuman qoldirmayapti-ku", degan. Albatta, shunchalik azob-uqubat tortganiga qaraganda ushbu so'zlarni aytgan bo'lishi mumkin. Chunki bir paytlar amirlikning mas'ul amaldorlaridan bo'lgan, "Yosh buxoroliklar" partiyasining millat, xalq ravnaqi yo'lidagi sof orzularini qo'llab-quvvatlagan Nosirbek Vatanda kechayotgan tubanliklarga aslo befarq qarab tura olmas edi.

1937-yil 14-noyabr kuni Ichki ishlar xalq komissarligi xodimi kichik leytenant Bajenov tomonidan tayyorlangan ayblov xulosasiga ko'ra, 15-noyabr kuni Buxoro shahri Mirzo Mustafko guzaridagi 179-uydan yana qamoqqa olinadi. 24-noyabr sanasi bilan to'ldirilgan yagona so'roq bayonnomasida Nosirbek o'ziga nisbatan qo'yilayotgan barcha ayblovlar quruq tuhm at ekanini yozib imzolaydi.

**1937-YIL 24-NOYABR KUNI** o'tgan so'roq davomida uning oilaviy ahvoli, yaqin qarindoshlari to'liq o'rganiladi va ukasi Ismoilbek nega Afg'onistonda yashayotgani, u bilan qanday aloqalari borligi to'g'risida batafsil izoh so'raladi. Ichki ishlar xalq komissarligi xodimlarining savollariga javoban Buxoro amirligida miroxo'rdan boshlab to'qsabo unvoniga qadar 3 yil davomida xizmat qilganini aytadi. 1937-yil 25-noyabrdagi ayblov xulosasida Nosirbek Abdurahimov "Sovetlar bizni aldadi, hattoki konstitutsiyasida ham diniy erkinlik yo'q-ku, degan", deb yoziladi.

1937-yil 28-noyabr kuni O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi mash'um "uchlik" yig'ini unga O'zSSR JKning 66-moddasi (*aksilinqilobiy targ'ibot*)ni qo'llab, 10 yilga mehnat tuzatish lageriga hukm qiladi...

Nihoyat, oradan ellik yildan ortiq vaqt o'tganda, O'zbekiston mustaqilligi arafasida 1990-yil 26-mart kuni haqiqat yuzaga chiqib, O'zbekiston SSR hukumati qarori bilan Nosirbek Abdurahimbiy o'g'li to'liq oqlandi.

"Harbiy jadiclar xotirasi barhayot" kitobidan.



Hech kim e'tibordan chetda qolmaydi



Muallif suratga olgan

# Ahdiga

## sodiqqlar unutilmaydi!

Kindik qoni to'kilgan yurtni sevishdek muqaddas tuyg'u bo'lmasa kerak. Qadim zamonlardan Vatan himoyasi yo'lida jon berib, jon olgan ajdodlarimiz nomlari tillarda doston. Ularning ko'rsatgan qahramonliklari tarix zarvaraqlarida o'chmas siyoh bilan bitilgan, go'yo. Qahramonlarimiz sharafiga kitoblar yozildi, she'r va dostonlar bitildi. Baxshi va hofizlar xonishida ularning mardligi, or va nomus uchun yovga qarshi chiqqanlari namoyon bo'lmoqda. Kelajak avlod o'z tomirlarida buyuk ajdodlarining qoni oqayotganligini bilishi va anglashi uchun qahramonlar haqida film va kliplar ham ishlanmoqda. Maqsad esa bitta, Vatan tinchligi yo'lida jonfido qilganlarni Vatan unutmaydi.

Uzoq o'tmishdan bugungi kungacha himoya usullari va qurollari o'zgacha bo'lgan bo'lishi mumkin, ammo o'zgarmagan yagona holat burch va mas'uliyatdir. Vatan tinchligi yo'lida majburiyatni yelkasiga ola bilgan er yigitlarda uni asrash mas'uliyati shakllanadi. Bunda insondan birinchi talab qilinadigan tuyg'u – sadoqat! Yurtga sodiq bo'lishdek muqaddas tuyg'uni Vatanga sodiqlik uchun ahd qilgan harbiylar yaxshi bilishadi.

Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismda bo'lib o'tgan bayram tadbiri o'z burchini bajarish vaqtida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning 60 nafar farzandini yo'qlashdan boshlandi. Bezatilgan archa atrofida jam bo'lgan bolajonlar ertak qahramonlari ishtirokidagi teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlarini tomosha qilishdi. Ulkan Yangi yil archasi atrofida harbiy

orkestr va Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansamblining kuy-qo'shiqlari jozibali raqslarga ulanib ketdi.

Bolajonlar kayfiyatiga yanada ko'tarinkilik ulashish uchun ularga Prezident sovg'asi tarqatildi. Ahdiga sodiq harbiylarning farzandlariga ajratilgan sovg'alarni mudofaa vaziri o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, Respublika Harbiy prokurorining o'rinbosari adliya polkovnigi Qahramon Isroilov va Mudofaa vazirligi huzuridagi faxriylar ishlari kengashi raisi Abubakr Navro'zov topshirdi.

Tadbirda so'z olganlar yurt tinchligi yo'lida o'z ahdiga sodiqlarni Vatan ham unutmashligi, farzandlarining kelajagi ishonchli qo'llarda ekanligiga urg'u berishdi. Bugun sovg'alar ulashilgan bolajonlar qaysi soha vakili bo'lib yetishishidan qat'i nazar, ularni Vatan hech qachon yolg'izlatib qo'ymasligi ta'kidlandi.

Sherzod SHARIPOV,  
"Vatanparvar"





Meros



SO'FI OLLOHYORNING AKASI

# QO'SHINBOSHI VA HUKMDOR

FARHODBIY OTALIQ HAQIDA  
BILASIZMI?

1707-yil oxirlari... Ushbu jang hech qaysi tarix darsligiga kiritilmagan. Hayratlanarlisi, bu savash maydoni egalardan biri ezgulik kuychisi, imyon targ'ibotchisi mashhur So'fi Oллоhyorning akasi edi. Quدراتli qo'shin qarorgohida son-sanoqsiz bahodirlar to'plangandi, afsus, oliy hukmdor va lashkarboshidan o'zga biror jangchi nomi tarixiy manbalarda yozib qoldirilmagan.

## BALX SAVASHIDAGI JASORATI UCHUN... KESH

Ashtarxonli Subhonqulixon ibn Nadr Muhammadxon akasi Abdulazizxon keksayib, davlatni boshqarishga ojiz bo'lib qolgandan so'ng 1682-yili uning taklifi bilan Turon poytaxti Buxoro taxtiga egalik qilish uchun Balxdan keladi. U qariyb 20 yil bu ulkan davlatni mustahkamlash va saqlab qolish yo'lida kurash olib boradi. Hijriy 1114-yili rabi us-soniy oyining 21-kuni (1702-yil 14-sentabr) 77 yoshga yetib, Buxoroda vafot etadi. Taxt 20 yashar o'g'li Ubaydullaxonga nasib etadi. Tangri taolo yoqqan shamni biror kimsa o'chirolmaganidek, hech kim u o'chirayotgan shu'la so'nishining oldini ham ololmas ekan. Ubaydullaxon Turon saltanatining bosh hukmdoriga aylangach, Balx shahrida hukm yuritayotgan (akasi Iskandar sultonning o'g'li) Muqim Muhammad sulton bilan orasida adovat paydo bo'ladi. Bundan foydalangan Mahmudbiy otaliq Muqim Muhammad sultonni o'ldirib, Balx taxtini qo'lga kiritadi. Ubaydullaxon hijriy 1119-yil boshida (1707-yil, aprel) Balxga qo'shin tortadi. Bu harbiy yurishda Shahrisabz viloyati hokimi Ibrohim miroxo'r kenagas va Xudoyorbiy parvonachi mang'it qo'shini bilan ishtirok etadi. Mir Muhammad Amin Buxoriy yozishicha, o'ng va so'l urug'lardan tashkil topgan Shahrisabz qo'shini Balx atrofida beboshlik qilib, tinch aholini talaydi. Bir qismi Mahmudbiy otaliqqa ko'mak beradi. Ubaydullaxon ushbu yurishda ko'p qiyinchilik bilan Balxni bo'ysundiradi. Shahrisabz qo'shini va ularga ergashgan Buxoro

qatag'onlarining o'zboshimcha harakatlari shu qiyinchilikning bir "qismi" edi.

**BALXNI ZABT ETISHDA** jonbozlik ko'rsatganlar orasida Farhodbiy ham bor edi. Farhodbiy xonga sadoqati, jangdagi mahorati va jasurligi tufayli Kesh viloyati hokimligi bilan taqdirlanadi. Ubaydullaxon shu yo'l bilan Ibrohim miroxo'r kenagas va Xudoyorbiy parvonachi mang'it kabi mazkur viloyat yetakchilarining qudratini butunlay sindirib, ularni jazolashni ko'zlaydi. Biroq bu vaqtda xonning birgina "oliy farmoni" bilan bu ishni osongina amalga oshirib bo'lmadi. Sharoit Ubaydullaxonning rejasi va Farhodbiy parvonachi o'tarchining shirin orzusi ro'yobga chiqishi uchun katta va og'ir jang bo'lishidan darak berayotgandi.

Farhodbiy parvonachi (1662-1722) tasavvuf ahlining taniqli vakili mujaddidiy-naqshbandiy So'fi Oллоhyorning akasi edi.

## FARHODBIYNING "SHIRIN"GA INTILGANI

Ubaydullaxondan Kesh viloyati hokimligi haqida farmon yorlig'ini olgach, Farhodbiy parvonachi ibn Oллоhquli 1707-yili sohibqiron Amir Temur va sulton Mirzo Ulug'bekning sevimli maskani Puli Mirza mavzesiga keladi. U harbiy qarorgohini hozirgi Qamashi tumani G'ishli qishlog'i o'rnida tikadi. Qashqadaryo sohillari qo'shin to'plash, harbiy harakatlar uchun har jihatdan hamma faslda qulay hudud edi. Uning ikki tomonidagi kengliklarda piyoda va otliq jangchilar har kuni jangovar mashqlar o'tkazishi, oziq-ovqat, suv muammosi, har qanday yirik qo'shinning bu yerda uzoqroq vaqtgacha saqlab turish masalalari boshqa joylarga nisbatan osonroq hal etilardi. Mir Muhammad Amin ta'kidlashicha, Qarshi, Miyonkol, Samarqand viloyatlarida yashovchi xitoy qipchoq qavmining barcha taniqli vakillari jangchilari bilan mazkur mavzeda yig'ila boshlaydi. Qisqa fursatda Puli Mirzada katta qo'shin to'planadi. Mustahkam va qudratli Kesh qal'asiga yurish boshlash oldidan qavm boshliqlari harbiy kengash o'tkazadi.

Bu voqea tafsiloti bitilgan hikoyani muallif: **"Farhodbiyning Shiringa intilgani kabi Shahrisabz viloyatini qo'lga kiritish uchun jo'nab ketishi. G'azabga uchragan o'ng va so'l qavmlarining qarshilik ko'rsatishi hamda shahar qal'asini undan himoya qilishlari. Ochko'zligi tufayli uning harakatlari samarasizligi hamda urinishlarining foydasizligi, bu vaqtda uning baxtsizlik va balolarga giriftor bo'lishi"** deb nomlaydi. Puli Mirzadagi jangovar harakatlar tafsiloti quyidagi matnlarda bayon qilinadi:

*"Hukmdor taxtda quyosh yanglig' o'tirib, yulduzlar misoli ko'p sonli qo'shinga Balxni bo'ysundirish uchun farmon berganda o'ng va so'l qavmning boshibuzug guruhlarini ahmoqona xatti-harakatlar namoyon etdi. Xon qilich bilan Shahrisabz viloyatini tortib olib, ularni jazolash va bo'ysundirishga qaror qildi. Farhodning Balxda ko'rsatgan shijoati va xitoy qipchoq qavmining Shahrisabzni tortib olish uchun qat'iy kirishishidan umidvor bo'ldi. Oliy farmon ila ushbu viloyat boshqaruvi Farhod nomiga yorliq qilib berildi. Bechora amir bundan xursand bo'lib, o'sha zahoti Qarshi, Samarqand, Miyonkol hududlarida yashovchi xitoy qipchoq qavmi boshliqlari va oqsoqollariga xabar jo'natdi. Yetib kelishganda tuhfa qilingan bu viloyatning hosildor yerlar va maysalarga to'la keng yaylovlarga boyligi haqida so'zlab, ularning dilini chog' etdi. Sochilib, turli joylarda yashashga majbur bo'lib yurgan xitoy qipchoq qavmi bunday mustahkam qal'aga ega bo'lishni juda istadi. Urug' oqsoqollari bu xabardan quvonib, qo'shin to'play boshladi. Barcha Puli Mirza atrofida yig'ildi. Bu joy Pulijar nomi bilan ham mashhurdir".*

## UNING YO'LI XOS JANGCHI MAQOMIDAN BOSHLANGAN

So'fi Oллоhyorning akasi Farhodbiy parvonachi o'ta mohir, jangning eng xatarli va savash avjiga chiqqan



joylarida paydo bo'lib qoladigan, kurash maydonida o'zini suvdagi baliqdek his etadigan iste'dodli, tengsiz jangchi edi. Uning hayot yo'liga nazar tashlanganda shu kabi xususiyatlarga ega shaxs ko'zga tashlanmoqda.

Subhonqulixon endigina Buxoro taxtini egallab, Turonning yagona hukmdoriga aylangan (1681-1682) kezlari avval o'z xavfsizligini ta'minlashga kirishadi. Ko'pchilik hukmdorlarda bo'lgani kabi uning ham sara bahodirlardan iborat xos qo'riqchilari bor edi. Buxoroga kelib, ular safiga Turon jangchilaridan saralab olish uchun jangovar musobaqalar uyushtiradi. Harbiy jang san'ati bahslari va sinovlarda raqiblaridan ustun kelib, xonning e'tiboriga tushgan jangchilar orasida So'fi Ollohyorning akasi yosh Farhod o'tarchi ham bor edi. U oliy hukmdor huzuridagi **xos jangovar harbiy qism – chuhralar** safiga qabul qilinadi. Uning katta siyosiy maydon sari yo'li shu joydan, **xos jangchi (chuhra)** maqomidan boshlanadi.

U Ashtarxonlilar davlatida sodir etilgan ko'p buzuvchiliklar sababchisi Anushaxon Xorazmiy bilan bo'lgan janglarda ishtirok etadi. Subhonqulixon Balxdagi shahzodalarning isyonini bostirish uchun borganda, uning yonida yuradi. Uzlaksiz harbiy to'qnashuvlarda toblanib, mohir jangchi bo'lib yetishadi.

### BIROZ O'TMISHDAGI VOQEALAR

Farhod o'tarchi 1683-1687-yillar atrofida kechgan turli qurolli to'qnashuvlardan sharaf bilan o'tib, nihoyat, xonning eng ishonchli va yaqin kishilaridan biriga aylanadi.

**HIJRIY 1099-YILI** rajab oyining yettinchi kuni (1688-yil 8-may) Subhonqulixon uni Miyonkoldagi Kufin viloyatiga hokim etib tayinlaydi. Xonning mazkur voqeaga oid oliy farmoni saqlanib qolgan. U Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasining hujjatlar bo'limidagi 65-jildda №275a raqami bilan asralmoqda.

Farhod chuhra o'tarchi Subhonqulixonning vafotidan (1702) keyin yirik amirlardan biriga aylanadi. 1707-yillardagi voqealarda nomi ortiga parvonachi unvoni qo'shib yozila boshladi.

### QORA QO'ZI QISHLOG'I

Mir Muhammad Amin "Ubaydullanoma" asarida Farhodbiy o'tarchi va Shahrisabz qo'shini o'rtasidagi jang tafsiloti, u sodir bo'lgan joy to'g'risida axborot bermaydi. Uning hikoyasi o'quvchida go'yo Farhodbiy Puli Mirzadan chiqib, Shahrisabz qal'asini qamal qilgandek taassurot qoldiradi. Mazkur jang qayerda ro'y bergandi? Shahrisabzdami? Balki, Puli Mirza mavzesidadir?

**QIDIRUVLAR SAMARA BERDI.** Nihoyat, jang maydoni topildi. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida Mir Husayn ibn Shohmurodbiy qalamiga mansub 112/1 raqami bilan saqlanayotgan "**Tarixi salotini shayboniya, ashtarxoniy va mang'itiya**" nomli asarda bu jang to'g'risida qisqagina axborot uchradi. Mir Husayn Shahrisabz qo'shini shaharga qamalib olmasdan dushmani Qora qo'zi qishlog'ida ochiq maydonda kutib olgani to'g'risida ma'lumot beradi.

Ikki raqib qo'shin shu joyda to'qnashadi. Uzoq davom etgan savashda Shahrisabz qo'shini qo'li baland keladi. Farhodbiy o'tarchi



askarlaridan anchasi asirga olinadi. Qora qo'zi qishlog'i hozirgacha shu nom bilan mavjuddir. U Shahrisabz shahrining g'arbiy tarafida halqa yo'ldan keyin 1,5-2 chaqirim masofada joylashgan.

### G'ALABA VA MAG'LUBIYAT

Shahrisabz viloyatining hukmdorlari Ibrohim miroxo'r kenagas va Xudoyor parvonachi mang'it bu jangga puxta tayyorlanadi. Ularning hayot-mamot masalasi shu to'qnashuvda hal etilardi. Dushman o'zlaridan cho'chiyotganini ham yaxshi bilib turgandilar. Bu jangda Ibrohim miroxo'r g'alabaga xizmat qiladigan imkoniyatlarning birortasini nazardan qochirmaydi. Ikki raqib qo'shin shunday ruhiy holat va kayfiyat bilan – **biri mag'lubiyatdan cho'chib, ikkinchisi g'alabaga intilib**, Qora qo'zi qishlog'ida yuzlashadi.

Farhodbiy parvonachi Shahrisabz viloyatini qo'lga kiritishni qanchalik istamasin, unda qo'rquv va hadik bor edi. Jang oldidan So'fi Ollohyor akasi bilan so'zlashgan bo'lsa kerak. "**Zo'ravonlikning zahar, zaqqum luqmasini yeganidan qattiq afsuslangan, dunyo vasvasalariga qo'l siltagan**" darvesh jangchi akasiga qanday maslahat berishi mumkin edi? Harqalay, So'fi Ollohyor ustoz Xalifa Navro'z Keshiy yurtiga qo'shin tortib borayotgan akasini qo'llamagan. Ehtimol, Farhodbiy o'tarchi yuragida xavotir, ishonchsizlik shu tariqa paydo bo'lgandir... Mir Muhammad Amin Buxoriy ham unda qo'rquv, ikkilanish bo'lgani tufayli mag'lub bo'lganini aytadi.

### ORADAN O'N BESH YIL O'TDI...

Farhodbiy o'tarchi bu orada Samarqand hokimi bo'ldi. Hijriy 1131-yili rajab oyining 20-kuni (1719-yil 8-iyun) davlat boshqaruvidagi oliy maqom – otaliq vazifasiga tayinlanib, Buxoro xonligi siyosiy hayotida nufuzli shaxslardan biriga aylandi. Ammo davlatning markaziy boshqaruvi va Turonni halokatli parchalanishga olib kelgan mamlakatdagi ommaviy tartibsizliklarga u ham barham berolmadi. Bu paytlarda Abul Fayzxon yoshlik ayyomini ortda qoldirib, yigitlik davriga qadam qo'ygandi. Farhodbiy o'tarchi ayni otaliq bo'lib turgan davrlarda (1719-1722) Miyonkol va Samarqand tomonlarda xitoy qipchoq qavmining davlatga qarshi isyoni kuchayib boraverdi. Bu fojiali jarayonlarni Shahrisabz bekligi ham qo'llab-quvvatladi. Davlat a'yonlarining mavjud vaziyatdan xavotiri ta'sirida Abul Fayzxon Farhodbiyga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'ldi.

### XUFIYONA HUKM

Isyon tarqalgan hududlardagi davlat manfaatlarini himoya qilayotgan hukumat vakillari axiyri markazni Farhodbiy qatliga da'vat etadi. Hokimiyatda u butunlay yakkalanib qoladi. Uni xufiyona o'limga hukm qiladilar. Abdurahmon To'le' mazkur voqea haqida: "**Hijriy 1134-yili (1722) barcha amirlar Farhodbiy o'ldirishga kelishib oldilar. U keyingi ikki yil otaliq vazifasini bajardi. Shanba kuni tong chog'i Namozgohda joylashgan uyiga kirib, uni o'ldirdilar**", deb yozadi. Qilich bilan katta siyosiy maydonga tushgan jangchi oxir-oqibat tig'dan halok bo'ldi. Uning Xojajonxoja ismli o'g'li ham otasidan sal oldinroq jang maydonida o'lgandi.

### JIGARI PORA SHOIR

Ushbu voqea – akasining o'limi to'g'risida So'fi Ollohyorning yozganlarini o'qiymiz:

Sanga yetgan mashaqqat, ey emukdosh,  
Bu miskin joniga bo'lg'ay edi kosh.  
Jonim, dilim, og'am, jigarim, diydayi tarim,  
Farhodi umdat ul-amir otli shahvarim.  
Tunlar ichinda ko'b edi nihon ibodati,  
Har yetti kunda xatmi Kalom edi odati.  
Chun oxirat edi bu jahonda irodati,  
Bo'ldi anga nasib shahodat saodati.

**Abdusattor JUMANAZAR,**  
**O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi**  
**Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi**



## E'tirof

Jamiyat hayotida faol ishtirok etayotgan, har jihatdan ibratli xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni keng targ'ib qilish va jamoatchilikka yetkazish maqsadida Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda qator vazirlik va idoralar hamkorligida o'tkazilgan "Yil ayoli - 2024" milliy tanlovining respublika bosqichida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi III darajali serjant Dilnoza Aralova muvaffaqiyatli ishtirok etib, "Yilning eng vatanparvar ayoli" nominatsiyasida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

# Yilning eng vatanparvar ayoli



Dilnoza 1984-yilning 25-iyunida Jizzax viloyatining Forish tumanida tug'ilgan. Uch o'g'il farzandning ichida voyaga yetgan qahramonimizning fe'l-atvori, shijoati va qat'iyati o'zi tengqur qizlardan ajralib turishini, unda o'g'lonlarga xos mardlik, bir so'zlik va katta iroda borligini otasi Amir aka va onasi Nazira opa bolaligidayoq ilg'agan edilar. Shu bois harbiylikka havasi va ishtiyoqi baland bo'lgan qizlari kun kelib shu sohani tanlaganida unga qarshilik bildirmadilar. Aytar so'zlari esa: "Sen bizning yuzimizsan, shuni doimo yodingda tut. Hamisha Vataningga, kasbingga va oilangga sadoqatli bo'l", deya nasihat qilish bo'ldi.

Ota-onasining o'gitlarini hayotiy shioriga aylantirgan III darajali serjant Dilnoza Aralova ko'p yillardan buyon o'zining mehnatsevarligi, fidoyiligi va jonkuyarligi bilan harbiy jamoada hurmat-e'tibor qozonib kelmoqda. "Yil ayoli - 2024" milliy tanlovidagi ishtiroki va qo'lga kiritilgan yuqori natija ham, uning keng dunyoqarashi, tafakkuri

va tinimsiz izlanishlari mahsuli bo'libgina qolmay, balki kasbiga cheksiz sadoqatining namunasidir.

Ta'kidlash kerakki, joriy yilda tanlovning tuman (shahar) bosqichlarida 3 091 nafar ayol ishtirok etdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bosqichlarida 1 146 nafar ayol qatnashib, ularning 150 nafari respublika bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi. Ushbu jarayonda ayollar faoliyati 12 ta nominatsiya bo'yicha baholandi.

- Barcha bosqichlardan muvaffaqiyatli o'tib, yakuniy natijalarga ko'ra, "Yilning eng vatanparvar ayoli" nominatsiyasi g'olibi deya e'lon qilinganimda, ko'z

oldimda ota-onamning yutug'imdan mamnun holda kulib turgan yuzlari gavdalandi. O'sha paytda qalbimda juda katta hayajon va cheksiz quvonch hislarini tuydim, - deydi III darajali serjant Dilnoza Aralova. - Bugungi kunda Jizzax viloyatida joylashgan DXX Chegara qo'shinlariga

qarashli bo'linmada xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassis sifatida faoliyat olib borar ekanman, harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlarni yuqori darajada tashkillashtirishga harakat qilib kelyapman.

Ushbu jarayonda ko'proq olis hududlarda joylashgan bo'linmalarimizga xizmat safarlariga borishga va u yerda istiqomat qilayotgan harbiy oilalardagi fikrlar, kayfiyatlar hamda ularning ehtiyojlarini doimiy ravishda

o'rganib borishga, turmush tarzidan muntazam xabardor bo'lib, mavjud muammolarini o'z vaqtida hal etishga alohida e'tibor qaratyapmiz.

Zero ayni damda mamlakatimizda xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta'minlash davlat ahamiyatiga molik masalalardan biri hisoblanib, "Yil ayoli - 2024" milliy tanlovining o'tkazilishi ham ana shu ezgu g'oyalarning ro'yobi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Albatta, qo'lga kiritilgan mukofot bizni yanada faolroq bo'lishga, zimmamizdagi vazifalarni yuksak mas'uliyat va shijoat bilan bajarishga undaydi.

Biz hamkasbimizni erishilgan ushbu yuksak natija bilan muborakbod etib, kelgusida bundanda yuqori marralarni zabt etishga tilakdoshmiz!

Mayor  
Farida BOBOJONOVA  
DXX Chegara qo'shinlari





Ehtirom

# ARSLON YURAGI KERAK

Zamonasining barcha asosiy ilmlarini atroficha o'rgangan, arab va fors tillarini mukammal bilgan ulug' olim Yusuf Xos Hojib turkiy tilning mavqeyini oshirish, uning madaniy-adabiy hayotdan o'ziga munosib o'rin egallashi uchun kurashgan. U "Qutadg'u bilig" asarini 1070-yilda yozib tugatar ekan, mazkur asar muqaddimasida shunday ma'lumot beradi: "Bu kitobni tartib beruvchi Balasog'unda tug'ilgan, sabr-qanoatli kishidir. Ammo bu kitobni Koshg'arda tug'al qilib, Mashriq maliki Tavg'achxon dargohiga keltiribdir. Malik uni yorlaqab, ulug'lab, o'z saroyida Xos Hojiblik lavozimini beribdi. Shuning uchun Yusuf Ulug' Xos Hojib deb mashhur nomi tarqalibdi".

Kitobda nomi tilga olingan xoqon Nasriddin Tavg'ach ulug' Bug'ro Qoraxon Abu Ali Hasan Xorunxon binni Arslonxon bo'lib, 1070-1103-yillar davomida qoraxoniylar davlatini boshqargan. Bu asarda o'rta asrlardagi harbiylik an'analari xususida ham so'z boradi. Masalan, "Qo'shin boshlig'iga kerak ko'p qiliq" nomli bo'limida qo'shin boshlig'i qanday bo'lishi kerakligi xususida so'z boradi. Ushbu bo'limda yozilishicha "Qo'shinga shunday boshliq kerakki, uning nomini eshitib yov lashkarining uyqusi o'chib ketishi lozim. Qo'shin boshlig'i bo'luvchi shaqs o'ziga puxta va ishiga pishiq bo'lishi shartki, lashkarga bosh bo'lish – og'ir ish. Negaki, u dushman bilan

birinchi yuzma-yuz keladi. Unda bir qancha jangovar xislatlar ham bo'lishi kerak. Unda mardlik va kuchli jismoniy holat, merganlik va saxovatli bo'lish xislatlari jam bo'lgan bo'lishi darkor. Bundan tashqari, qo'shin boshlig'i ko'p narsalardan tiyilib, o'zi uchun bir ot, to'n, qurol bilan kifoyalangani ma'qul. U agar o'zini o'ylab dunyo yig'ish, yer-suvim, bog'-rog'im deb oltin-kumushga ko'ngil bersa, u o'zini hamda qo'shinni halokatga yetaklaydi. Qo'shin boshlig'i juda jasur bo'lishi kerakki, undan qo'l ostidagi bahodir va botirlar jonini fido etib, tog' qoyalarida yotgan chog'larida o'z boshliqlaridan o'rnak olishlari shart. Agar u jang-u jadallarda yuraksizlik qilsa,

u qo'shinga kerak emas va xuddi yuraksiz jangchi ayollar qatoriga mansubligi singari, butunboshli qo'shinni halok qilishi mumkin. Chunki qo'shinni jangga olib kirish oson emas. Erkak kishi or-nomusini deb yovga otiladi, undan o'chini oladi. Or-nomus tufayli u yov lashkarini parokanda qiladi. Urushda eng avval benomuslar chekinadi, orqaga qarab qochadi. Nomusni deb qo'rqqoq ham alplik qiladi. Yurakli degani aslida nomusli deyish bilan barobar. Nomusli odam halok bo'lsa ham jang maydonida urushib halok bo'ladi. Asarda qo'shin boshlig'ida ba'zi bir hayvonlar xislatlari ham bo'lishi kerakligi aytiladi. Masalan:

*Urushda zo'r arslon yuragi kerak,  
Kurashda-chi, qoplon bilagi kerak.  
To'ng'izdek hujumkor, bo'ridek  
kuchi,  
Ayiq shiddati-yu qo'tosning o'chi.  
Yana usta bo'lsa qizil tulkidek,  
Tuva erkagidek qila olsa kek.  
Himmatini bo'lsa bir zo'r arsloncha  
bor.  
Misli boyqush bo'lsa tunlari bedor.*

Agar ana shu xislatlar jam bo'lsa, o'sha odamni lashkarboshi qilib tayinlash o'rinli bo'ladi", deb yozadi Yusuf Xos Hojib.

Muallifning ta'kidlashicha, lashkarboshi o'z qo'shinini juda


yaxshi bilmog'i lozim. U ayg'oqchi va qorovuldami, soqchi va butun qo'shinni kuzatishi kerak. Dushman tarafdin iloji boricha tezroq biror-bir askarni qo'lga kiritish lozimdir. Uning yordamida yov qo'shinining tuzilishi hamda uning "nozik" tomonlarini aniqlab olish mumkin. Yusuf Xos Hojibning aytishicha, yovni yengishning ikkita asosiy yo'li bor. Ularning biri – yovni chalg'itish, unga hiyla qo'llash. Boshqasi esa – puxtakorlik. Ammo urushga hech qachon shoshilmaslik lozim. Qo'shinning oldingi safiga urush ko'rgan, oqsoch bahodirlarni qo'yishi kerak. Negaki, ular yosh jangchilarga dalda beradi. Kichik yoshli askarlar shiddatli bo'lishiga

qaramay, yov yuz tutgudek bo'lsa, o'zlarini yo'qotib qo'yishi, sarosimaga tushib qolishi mumkin. Bundan tashqari, ishonchli kishilarni lashkar saflarining oldi va orqasiga qo'yish kerakki, o'ng va so'lda ham boshqalari bo'lishi kerak. Chunki oldingi safdagi alplarning o'zi ham yov qo'shinini yengishi mumkin. Agar dushman qo'shini ot solib, dag'dag'a qilsa, bardosh ko'rsatish, orqaga chekinmaslik kerak. Agar u qochgudek bo'lsa, to'xtash kerak va izidan quvmaslik lozim, chunki u yana ortiga o'girilsa, qocholmay qolishning mumkin.

**Shohruz SHARIPOV,  
O'zbekiston Fanlar akademiyasi  
Tarix instituti kichik  
ilmiy xodimi**



Ta'lim



## ABDUQODIR



## SHAKURIY

# — MILLAT MA'RIFATPARVARI

Abduqodir Shakuriy 1875-yili Samarqandning Rajabamin qishlog'ida bog'bon oilasida tug'ilgan. Dastlab eski usul maktabida, so'ngra Samarqand shahridagi madrasada o'qigan.

Bo'lajak murabbiy rus gimnaziyasiga borib, uning ichki tartib-qoidalari va o'qitish usullari bilan tanishadi. Qo'qon shahriga borib, yangi usul maktablari faoliyatini o'rganadi. Shundan so'ng 1901-yili qishlog'i Rajabaminda birinchi yangi usuldagi maktabni tashkil

qiladi. Shakuriy o'z xotiralarida tatar pedagogi Abdulxodiy Maqsudiyning "Muallimi avval", "Muallimi soniy" kabi darsliklaridan o'z vaqtida foydalanganligini ko'p marotaba eslaydi.

Shakuriy maktabida tojik va o'zbek bolalari birga ta'lim

olishgan. Bolaning savodi chiqqach, o'zbek va tojik tillarida yozilgan kitoblar, shu bilan bir qatorda, o'quvchilarni ozarbayjon va tatar adabiyoti namunalarini tanishtirish maqsadida shu tillarda yozilgan asarlardan parchalar o'qitilgan.

Shakuriy o'z o'quvchilari uchun bir yilda bir marta imtihon uyushtirgan. U ota-onalar oldida o'quvchilar bilimining natijalarini namoyish qildirgan, ota-onalar esa o'z bolalarining qisqa muddat ichida xat-savodli,

hisob, geografiya va tibbiyotdan ma'lumotga ega bo'lganini ko'rib hayratlanganlar.

Hamza Hakimzoda Niyoziy Shakuriy ochgan maktab bilan juda qiziqqan. U 1909-yili maktabni ko'rish, uning imtihonlarida qatnashish uchun Samarqandga kelgan. Bu maktabdagi o'qish-o'qitish tartibi va imtihon natijalari Hamzada yaxshi taassurot qoldirgan. Hamza va Shakuriy bir-birlari bilan do'stlashib, ko'p yillar davomida xat yozishib turganlar.

Shakuriy qizlar uchun ham yangi usuldagi maktab tashkil etgan. Unda rafiqasi muallimlik qilgan. Keyinchalik o'g'il va qiz bolalar guruhini birlashtirib o'qita boshlagan.

1921-yili Samarqand shahridagi 13-maktabga mudir qilib tayinlangan Shakuriy birinchi bo'lib maktabda mehnat va musiqa darslarini joriy qilgan. U bolalarga qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik ishlarini tanishtirishdan tashqari, muqovasozlik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o'rgatgan.

1925-yili Abduqodir Shakuriyning tashabbusi bilan qishloq aholisi o'z mablag'lari hisobiga to'rt sinfli yangi maktab qurib ishga tushirishgan.

Shakuriy faqat o'qituvchilik qilish bilangina cheklanib qolmagan, maktabi uchun darsliklar yozib, ularni o'z mablag'lari hisobiga nashr qildirgan. "Rahnamoyi savod"

("Savod chiqarish qo'llanmasi") deb atalgan kitobi shu tariqa chop etilgan. Shakuriyning shogirdi, yozuvchi Rahim Hoshim bu kitobda so'zlar bo'g'inlarga ajratib ko'rsatilgan, kitob oxirida o'qish uchun kichik-kichik material berilganini qayd etadi.

1913-yili uning rahbarligida shogirdi Ismatulla Rahmatullayev tovush-harf usuli asosida yangi alifbo tuzgan. Bu kitob Toshkent shahrida nashr qilingan. Kitobning kirish qismida tez va osonlik bilan savodli bo'lish masalasiga oid metodik maslahatlar berilgan. "Alifbo ta'limi" kitobi Ismatulla Rahmatullayevning va ustoz Abduqodir Shakuriyning ko'p yillik amaliy faoliyatining natijasida yaratilgan. Alifbe 46 betdan iborat bo'lib, taxminan 90 ta dars uchun mo'ljallangan.

Shakuriy tomonidan 1907-yili yozilgan ikkinchi kitob "Jome' ul-hikoyat" ("Hikoyalari to'plami")dir. Kitob boshlang'ich maktabning ikkinchi sinfi uchun mo'ljallangan bo'lib, undagi o'quv materiallarining hammasi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qilgan. Shakuriy tomonidan tuzilgan va nashr qilingan yana bir kitob "Zubdat ul-ash'or" ("She'rlar qaymog'i") to'plami bo'lib, unda ko'plab shoirlarning she'rlari berilgan.

Ma'rifatparvar olim 1943-yili vafot etgan.

**Dilnoza JAMOLOVA,  
tarix fanlari doktori**



## Tadqiqot



Rayhona haqida to'liq ma'lumotga ega emasmi. Abu Rayhon Beruniyning o'zi esa u haqida shunday yozgan: "Shuning uchun men bu eslatma (*kitob*)ni bu (*san'atning*) tolibasi xorazmlik Rayhona – al-Hasanning qizi uchun savol va javob tarzida tuzdim, chunki bu (*usul*) yaxshi va tasavvur qilish uchun osondir. Men handasadan boshladim, so'ngra hisob va sonlarga (*o'tdim*), keyin olam

yozgan. Bizning fikr boshqacharoq: asar yozilgan vaqtda Rayhona arab tilini yaxshi yoki umuman bilmagani sababli "Tafhim" fors tilida bitilgan.

Tojikistonlik olimlarning Rayhona Husaynning qiziligi borasidagi xulosalarini qo'lyozmani ko'chirgan xattotning xatosi bilan tushuntirgan bo'lardik. Negaki ko'pgina qo'lyozmalarda va nashrlarda Rayhona Hasanning qiziligi aytilgan.

Astrologiyani "ahkomi nujum", ya'ni "yulduzlardan hukm chiqarish" deb atagan olim unga nisbatan "Geodeziya"da ham, "Qonuni

asar arabchasining Britaniya muzeyidagi qo'lyozma nusxasining foto-ko'chirmasini keltirgan R. Rayt ham Rayhona Sulton Mahmud tomonidan Xorazmdan G'aznaga olib ketilganlardan bo'lishi mumkinligini aytadi. Shu bilan birga, Rayhona Hasanning emas, balki Ma'mun ibn Muhammadning (995–997) qizi, Ma'mun ibn Ma'munning singlisi bo'lsa kerak, degan fikrni ham ilgari suradi. Biroq bunday taxminga asos bo'ladigan dalil hozircha topilgani yo'q. Shu sababdan ham R. Rayt baribir Rayhona Abu Rayhon Beruniyning

## Beruniy va Rayhona

tuzilishiga, so'ng yulduzlardan hukm (*chiqarish*)ga o'tdim, chunki (*har qanday*) inson ham ana shu to'rt fanni o'zlashtirganidagina munajjim ismiga loyiqdir".

Demak, olim o'zining eng salmoqli asarlaridan birini Rayhonaga bag'ishlab, ishini unga astronomiya ilmini eng sodda usullarda tushuntirishdan boshlaydi. Ya'ni bu yerda olim o'z oldiga aniq ta'lim-tarbiya maqsadini qo'yganini ko'rish mumkin. Aynan shu jihati bilan "Tafhim" Abu Rayhon Beruniyning boshqa ishlaridan ajralib turadi va tuzilishi bilan ulardan farq qiladi.

"Tafhim"ning tojik tilidagi nashri so'zbohisida aytilishicha, Rayhona fors tilini arab tilidan yaxshi bilgani uchun ham Abu Rayhon Beruniy uni oldin fors tilida, so'ng arab tilida

Mas'udiy"da ham, "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"da ham tanqidiy qarashini ochiq aytgan va qoralagan bo'lishiga qaramay, bu ishga u o'zi bog'liq bo'lgan homiylar talabiga ko'ra qo'l urgan. Aftidan, Xorazmning hukmron doiralari mansub bo'lgan Rayhona Sulton Mahmud (998–1030) tomonidan G'aznaga olib ketilgan yirik zodagonning qizi bo'lsa kerak. Shu vajdan ham "Tafhim"da ko'proq astrologiyaga ahamiyat berilgan. Hasanning Ma'mun ibn Ma'mun (1010–1017) saroyiga yaqin bo'lgani va g'aznaviylar yetakchisi bilan yurtini tark etganini o'z paytida I.Y. Krachkovskiy ham taxmin qilgani.

"Tafhim"ni ilk bora 1934-yili Londonda ingliz tilida nashr qilib,

Ma'mun saroyidagi do'stlaridan birining qizi, degan to'xtamga keladi va bu qiz kelib chiqishidan qat'i nazar Sharq ayollari orasida bilimga zo'r ishtiyoqi hamda unga atab bir kitob yozilgani bilan ajralib turishini ta'kidlaydi.

Nima bo'lganda ham, ulug' ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy "Tafhim"ning dunyoga kelishi, eng avvalo, o'zbek xalqining turli qatlamlari, xususan, kazo-kazolarning aniq va tabiiy fanlar, tarixga bo'lgan qiziqishlari, farzand tarbiyasi, ayniqsa qizlar ta'limiga bo'lgan e'tibori qanchalar kuchli bo'lganini ko'rsatadi, deb o'ylaymiz.

**Islom BO'RIYEV,**  
**Tarix instituti kichik ilmiy xodimi**

Kishilikning buyuk daholaridan sanalmish Abu Rayhon Beruniyning (973–1048) 1029-yili G'aznada yozilgan "Munajjimlik san'ati (*astrologiya*) negizlarini tushuntirish kitobi (*Tafhim*)" asarida matematika, astronomiya, geografiya, davrshunoslik, tarixning umumiy masalalari va ularning munajjimlik san'atiga tatbiqi bayon qilingan. Mazkur qomusiy asar bilan bog'liq yana bir o'ziga xos jihat uning xorazmlik Hasan otli kishining qizi Rayhonaga atab yozilganidir.

## Oliy saodat

1992-yil 14-yanvar. Bu sana mustaqil O'zbekiston tarixi sahifalariga Vatan himoyachilari kuni sifatida muhrlandi.

# VATANNI SEVMOQ iymondandir

Vatan to'g'risida gap ketar ekan, xalqimiz orasida keng tarqalgan "Vatan ostonadan boshlanadi" degan naql bot-bot xayolimizdan o'tadi. Bu nima degani? Har bir insonning o'z kichik Vatani bor. Bu uning uyi hisoblanadi. Demak, har bir insonning emin-erkinligi, ozodligi, hurriyatini va shaxsiy huquqlarini himoya qiladigan Vatani bo'ladi. Bu yer uning chegaralangan uy-joyi hisoblanadi. Ana shu uy-joyining to'rt tarafini devor bilan o'rar ekan va unga kiradigan darvoza qo'yar ekan, shuning ichkarisi uning Vatani hisoblanadi.

VATAN OSTONADAN, insonning kindik qoni to'kilgan tuproqdan boshlanadi. Kishining tug'ilib o'sgan uyi, mahallasi, qishlog'i, yaqinlari Vatan degan tushunchada mujassam. U keng ma'noda biror xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hududni anglatadi.

Xalqimiz odatda Vatan so'ziga ona so'zini qo'shib talaffuz qiladi: ona Vatan. Bu Vatanning onaday aziz, mehribon, jonkuyarligiga ishora bo'lsa kerak. Axir inson uchun onadan azizroq kishi bormi?! Jism-u jon ato qilib, yana boshimizda tunlarni bedor

o'tkazgan zot o'ziga bor zahmatlarni olib, rohatni farzandiga ilinganini ta'riflashga har qancha "mehribon" degan so'z kamlik qilmaydimi? O'zga jon uchun, uning baxti, kamoli, ertangi kuni deb, kerak bo'lsa, o'z jonidan ham kechadigan yana kim bor olamda?! Aslida esa mana shu tuyg'u, tasavvur, rishta, shuncha mehming hammasi Vatanning bir parchasi, bir bo'lagi xolos.

Vatan – bu insonning tug'ilib o'sgan yeri, uning go'daklik chog'idanoq mehr qo'yan o'chog'i.

VATAN MEHRI avvalo, insonning o'z oilasi, uyi, mahallasi hamda tug'ilib o'sgan yurtiga mehr-muhabbatidir. Vatanga muhabbat yuksak insoniy fazilatlaridan. Bu haqda: "Vatanni sevmoq iymondandir" deyilgan hikmatni esga olish kifoya. Vatanni sevish insonga xos tabiiy tuyg'u, u iymonning bir bo'lagi deb qaraladi. Buyuk mutafakkir, shoir va sarkarda, davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining aziz va muqaddas diyorini eslab, sog'inib she'rlar yozishini esga olaylik, uning hayoti ham Vatanning qadrini anglashga yorqin misol bo'la oladi.

O'z davrining yirik davlatlaridan birining hukmdori bo'la turib, bir umr Andijonni, so'lim Farg'onani, bobokalonlaridan meros Samarqandni qo'rsab o'tadi, ijodining salmoqli qismida Vatan sog'inchi sezilib turadi. Bu ham, albatta, har bir insonning qalbida Vatanga, tug'ilib o'sgan diyoriga muhabbatli bo'lishi tabiiy ekanini anglatadi. Vatanni sevish tufayli dunyo obod bo'ladi.

Ulg'ayib voyaga yetgan zaminga mehrl bo'lish, uning har bir hovuch tuprog'ini muqaddas deb bilish, ko'zga to'tiyodek surtish, bir umr farzandlik sadoqati bilan yashash har bir inson uchun ham farz, ham qarz hisoblanadi.

Vatanni sevish hissi insonda tug'ma bo'lsa ham, albatta uni rivojlantirish va tarbiya qilish lozim. Ya'ni Vatanga bo'lgan muhabbat tarbiyalangandagina vatanparvarlik deb atalgan ulkan tuyg'uga aylanadi. Shu bois ota-onalar farzandlar qalbiga vatanparvarlik tuyg'usini joylamoqlari lozim.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Lays Samarqandiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy, Qaffol Shoshiy kabi buyuk bobolarimiz ham Vatanga bo'lgan kuchli muhabbatlari tufayli o'zlarining taxalluslarini kindik qoni to'kilgan yurt nomi bilan bog'laganlari ham ana shunday e'tirof va e'tiborning o'ziga xos amaliy ifodasi hisoblanadi.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy shunday deganlar:

*Vatan tarkini bir nafas aylama,  
Yana ranj-u g'urbat havas aylama.*

Vatan inson uchun muqaddas, hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydi, u o'z-o'zidan sevishga, ardoqlanishga va qadrlanishga loyiqdir.

VATAN – MUQADDAS MAKON. Uni himoya qilish, dushmanlardan asrash,

ravnaqi va farovonligi yo'lida xizmat qilish har bir inson uchun ham farz, ham qarz.

Yurtimiz dovruq'ini dunyoga taratgan buyuk ajdodlarimizdan Najmiddin Kubro haqiqiy Vatan himoyachisi qanday bo'lishining yorqin misoli bo'la oladi. Zamonasining yirik allomalaridan, minglab muridlarga ega bo'lgan bu tariqat peshvosi mo'g'ullar bostirib kirganligidan xabar topgach, birinchilardan bo'lib Vatan himoyasiga o'tlanadi. Mo'g'ul hukmdorlar Najmiddin Kubroning xalq orasidagi obro'-e'tiborini ko'rib, unga shaharni tashlab, o'zi ixtiyor qilgan tarafdagi ketishni taklif qiladi.

Vatanni o'z jonidan ustun bilgan Najmiddin Kubro bosqinchilarga qarshi jangga kiradi va tug' ko'tarib, lashkarni olg'a chorlab borayotgan holatda shahid bo'ladi. U zot tug'ni shunchalar jon-jahdi bilan ushlagan ediki, bayroqni qo'llarini kesibgina olishga muvaffaq bo'lishadi. Tariximizdan bunga o'xshash misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

VATANNI HIMOYA QILISH naqadar ulug' savob hisoblansa, unga xiyonat qilish, qurol bilan bostirib kirish shu qadar katta gunoh, eng oliy jazoga loyiq jinoyat hisoblanadi.

Har bir inson o'z Vatani, oilasi va xalqini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashi lozim. Inson o'z Vatanning ravnaqi uchun fidoyilik ko'rsatishi, bu yo'lda kerak bo'lsa, jonini ham berishi lozim bo'ladi.

Vatanparvarlik tuyg'usi bilan yashash, farovon kunlarimizning qadriga yetish, tinchlik va barqarorlikni asrab-avaylash, xalq farovonligini ta'minlash juda katta mehnat va mas'uliyatni talab qiladi. Buning uchun har bir yurt farzandi o'zini shu yurt taqdiriga daxldor ekanligini qalbdan his qilgan holda o'zining jamiyatdagi vazifalarini to'la ado qilmoqlari lozim. Zero Vatanga xizmat shu yurt farzandiman degan har bir o'g'il-qiz uchun eng oliy saodatdir.

**Munira KARABAYEVA,**  
**Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti**



Muqaddas burch

# MAQSADLARI BIR, ORZULARI MUSHTARAK

Amerikalik yozuvchi Xelen Keller shunday degan edi: "Kimdagi uchishga ishtiyoq uyg'onsa, sudralishni hech qachon xohlamaydi". Darvoqe, ulkan maqsadlar bilan yashaydigan, katta marralarni ko'zlashdan, ularni zabt etishdan cho'chimaydigan, samolarda parvoz qilishdek yuksak orzularga erishishga ishonishdan to'xtamaydigan yoshlar bisyor. Ular o'z yutug'i bilan o'zbek yoshlariga ilhom beradi va katta orzular ortidan ergashishga o'rgatadi.



Kursant G'aybullo Dadajonov

## MAQSADIM KASBIMNING ENG ILG'ORI BO'LISH

Yoshlik – katta maqsadlar, orzular shakllanadigan davr. Yigit-qizlar ulg'ayib borgani sari ularning qalbida kurtak otgan orzular ham maqsadga aylanib boradi. Namanganning Chust tumanida tug'ilgan kursant G'aybullo Dadajonov ayni fursatda harbiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib, uchuvchilik kasbining sir-asrorlarini puxta egallab, maqsadi sari dadil intilayotgan o'g'lonlardan. Uni orzulari ostonasida turgan omadli yigit, desak bo'ladi. Ya'ni dilidagi ezgu niyatlaridan biri harbiy uchuvchi bo'lib, o'z yurtiga, xalqiga fidokorona xizmat qilishdan iborat.

G'aybullo harbiy aviatsiya institutiga o'qishga kirguniga qadar "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyida tahsil oldi. O'smir yoshidan boshlab sportning futbol turi bilan shug'ullangan, tuman va viloyatda o'tkazilgan musobaqalarda jamoasi bilan yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan. U orzusiga erishish uchun ko'p mehnat qilish kerakligini bilar edi. Harbiy uchuvchilikning mashaqqatli kasb ekani, unga hamma ham erisha olmasligini anglagan shovvoz o'qish davomida o'zining bilimi va shijoati bilan tengqurlaridan yaqqol ajralib turar edi. Shu bois diliga tugib qo'ygan orzusini ro'yobga chiqarish uchun o'qish va izlanishdan charchamadi. 2020-yil G'aybullo uchun omadli keldi. Sababi u aynan shu yili harbiy aviatsiya institutiga o'qishga qabul qilindi.

– 4-bosqichdan boshlab Amir Temur stipendiyasiga nomzod bo'lish yo'lida ilk qadamni qo'ydim, – deydi kursant G'aybullo Dadajonov. – O'sha paytda faqat bir maqsadim bor edi – har doim o'qishda faol bo'lish, ta'lim jarayonida yuksak natijalarga erishish edi. Har bir semestr oxirida yakuniy imtihonlaridan a'lo baholar bilan o'tishga, yanada yuksalishga, ilg'or bo'lishga intildim. Professor-o'qituvchilarning e'tiborini qozonib, 5-bosqichda Amir Temur stipendiyasiga sazovor bo'ldim. Bu esa men uchun g'alaba emas, balki boshlanish edi. Hozirda samolyot uchuvchisi yo'nalishida ta'lim olayman. Bugungi kunga qadar 90 marta o'quv parvozini amalga oshirdim. Albatta, har bir parvoz oldidan hayajon kuchli bo'ladi. Chunki samolyot qanotlari bilan bir bo'lib osmon-u falakka ko'tarilishning gashti boshqacha. Ana shu his-hayajonlarni yengishda tajribali ustozlarimning tavsiyalari menga juda asqatadi. Parvozning eng mashaqqatli tomoni bu uchish va qo'nishdadir. Siz osmonga ko'tarila oldingizmi, demak, omadlisiz. Yerga qo'na oldingizmi, ikki karra omadlisiz.



Kursant Javlon Davronov

## INSTITUT IMKONIYATLAR MASKANI

– Men, kursant Javlon Davronov Andijon viloyati Buloqboshi tumanining Shirmonbuloq qishlog'ida tug'ilganman. Yoshim 20 da. Oilada uch farzandim. Uchuvchi bo'lishni orzu qilmagan yigit bo'lmasa kerak. Men yoshlikdan shu orzu bilan ulg'aydim. Qishlog'imizda ushbu kasbni egallaganlar sanoqli. Institutga kirish sinovlaridan o'tish uchun xorijiy tillarni bilish, matematika va fizika fanlarini puxta egallash kerakligini bilardim. Shuning uchun qishlog'imizda ochilgan tayyorlov kurslariga qatnay boshlaganman. O'zim maktabda ingliz va rus tillarini yaxshi o'zlashtirganim sababli bu fanlardan maxsus tayyorgarlik olib bormadim. Ko'rib turganingizdek, hozirda O'zbekiston Respublikasi harbiy aviatsiya institutida 4-bosqich kursantiman. Mutaxassisligim bort muhandisi. Bu sohaning aviatsiyada tutgan o'rni beqiyos. Sababi har bir parvoz oldidan samolyot va vertolyotlar texnik ko'rikdan o'tkaziladi. Muhandisning sifatli texnik xizmati parvozning muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi.

Amir Temur stipendiyasiga sazovor bo'lishimning o'ziga xos bir hikoyasi bor. Sababi men bunga erishish uchun 1-kursligimdan buyon harakat qilib kelganman. Aynan o'qishimning dastlabki yillaridan boshlab qilgan mehnatim, harakatlarim 4-kurs bo'lganimda o'z mevasini berdi.

Institutimizda kursantlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun hamma sharoitlar yaratilgan. Mashg'ulotlardan so'ng vaqt topdim deguncha, rasm chizishni yoqtiraman. Kolleksiyamda men tasvirini tushirmagan harbiy uchoqlar qolmagan. Sohamiz talab etadigan muhim jihatlardan biri bu bizning jismoniy holatimizning a'lo darajada bo'lishidir. Albatta, dars mashg'ulotlari tugagandan so'ng kursdoshlarimiz bilan sport majmuasida futbol, voleybol, stol tennis bilan shug'ullanamiz. Yaqinda voleybol bo'yicha institutimizda o'tkazilgan musobaqada kursdoshlarimiz bilan faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritdik.



Kursant Feruzbek Eshniyozov

## BILIM, G'AYRAT, SHIJOAT

Institutda bilim va ko'nikmalarni egallayotgan kursantlarning o'z so'zi, qat'iy fikriga ega ekani tahsinga loyiq. Jumladan, 3-bosqich kursanti Feruzbek Eshniyozov dadilligi, oldiga qo'ygan kelajak rejalari, dunyoqarashi kengligi bilan diqqatimizni tortdi. U ham akalari singari Amir Temur stipendiyasi sovrindori. Yosh bo'lishiga qaramay, erishgan yutuqlari havas qilarli!

– Harbiy aviatsiya institutiga o'qishga kirish men uchun orzu edi. Hozir esa mazkur dargohning 3-bosqich kursantiman. O'qish davomida bilimlarni puxta egallab kelayotganim, yakuniy imtihonlarni a'lo baholarga topshirganim uchun Amir Temur stipendiyasiga loyiq deb topildim. Bu e'tirof men uchun faxrli, albatta. Bunga erishishimda menga bilim berib kelayotgan ustozlarimning mehnati beqiyos. Maqsadga erishishning zalvarli talablari bor, albatta. Chunki oldingizga katta maqsadlarni qo'ydingizmi, unga yetishish uchun nimadandir voz kechishingiz kerak. Bu xoh uyqu bo'lsin, xoh moddiy. Lekin, albatta bir kun bilimga, ta'limga qilgan investitsayingiz o'zini oqlashi shubhasiz. Ulug'lar ta'kidlaganidek, insonda niyat qanchalik ezgu bo'lib, harakat ham shunga hamohang tarzda uyg'un bo'lsagina, maqsadlar ro'yobga yo'l ochiladi.

Shovvozlarimning barchasining o'ziga xos orzu-intilishlari, ulug' maqsadlari bor. Bilim, g'ayrat, iroda va intilish ularda mujassam ekan, yurtning yetuk insonlari safida bo'lishlariga shubha yo'q.

## Uchrashuv



# CHEMPIONLAR HARBIY QISM MEHMONI

Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligiga qarashli Yangihayot tumanida joylashgan harbiy qismda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi munosabati bilan "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida vatanparvarlik festivali o'tkazildi.

Unda Olimpiada o'yinlari sovrindorlari, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahri kengashi, o'quvchi-yoshlar, harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.

Tadbimi Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari polkovnik Tolibjon Mirzayev kirish so'zi bilan ochib berdi. Dastavval, tadbirda Olimpiada chempionlari bilan davra suhbatlari bo'lib o'tdi va xalqaro miqyosdagi musobaqalarda yurtimiz sharafini himoya qilgan sportchilarning yutuqlari e'tirof etildi. Shundan so'ng sportchilar qo'lga kiritgan yutuqlari bo'yicha tadbir ishtirokchilariga so'zlab berdi. Hozirgi kunda yurtimizda yoshlarning sport bilan shug'ullanishi uchun yaratilgan sharoitlar, berilayotgan imkoniyatlarni alohida ta'kidlab, o'zlarining tavsiyalarini aytdi.

Tadbimning ikkinchi qismida O'rta Chirchiq tumanidagi 71-umumta'lim maktabi qoshida ochilgan "Yosh Temurbeklar" harbiy sport nodavlat ta'lim muassasasi a'zolarining qo'ljangi chiqishlari namoyish etildi. Shuningdek, ochiq eshiklar kuni doirasida harbiy qism saf maydonida qurol-aslahalar, harbiy texnikalar namoyish etildi. Ushbu tadbir yoshlarni sportga qiziqitirish, Vatanga bo'lgan muhabbatini oshirish, Yurtboshimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlardan foydalangan holda, yurt koriga yaraydigan yoshlar safini ko'paytirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.



Harbiylar tashabbusi

# KELAJAK CHEMPIONLARI TARBIYALANMOQDA

Sport – bu nafaqat jismoniy harakat, balki inson ruhi va irodasini tarbiyalaydigan vosita. Har bir mashq, har bir g'alaba insonni kuchliroq shaxsga aylantiradi. Yurtimizda yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularga qulay shart-sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yoshlarning kelajakda jamiyatda o'z o'rnini topishida ijobiy natija ko'rsatadi.

Yangiyo'l tumanidagi 4-umumta'lim maktabida Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligiga qarashli harbiy qism tashabbusi bilan karate bo'yicha sport to'garagi o'z faoliyatini boshladi. Bu tashabbus yosh avlodni sportga keng jalb qilish, ularning jismoniy tayyorgarligini oshirish va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashni maqsad qilgan. Mazkur sport to'garagi maktab o'quvchilari uchun yangi imkoniyat eshigini ochish barobarida, ularga harbiy intizomni tushunish, xalq va armiya o'zaro yakdil ekanini ifodalovchi yana bir amaliy qadam bo'ldi.

Mazkur to'garakka III darajali serjant Furqat Turdiyev rahbarlik qilmoqda. Faoliyati haqida o'zi shunday deydi:

– Men, 2016-yildan buyon harbiy xizmatni o'tab kelmoqdaman. Bolaligimdan sportga bo'lgan qiziqishim harbiy sohada ham yordam berdi. Sportning karate turi bilan shug'ullanishni tanlashim tasodif emas – u menga nafaqat jismoniy, balki ruhiy barqarorlik, qat'iyat va o'zimga bo'lgan ishonchni mustahkamladi. Hozirda qora belbog' sohibiman va bu sport turidagi yuksak mahoratimni namoyish etib kelaman.

O'tgan yillar davomida bir qator mahalliy va xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, O'zbekiston bayrog'ini yuqori ko'tarishga muvaffaq bo'ldim. Turli darajadagi bellashuvlarda oltin va kumush medallarga sazovor bo'lish faxriga erishdim. Bularning barchasi nafaqat shaxsiy yutug'im, balki menga ishonganlar uchun ham g'ururdur.

Yaqinda harbiy qism komandiridan yoshlarga sport to'garaklari tashkil etish taklifi tushdi. Bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qildim, chunki sport orqali yoshlarga ta'sir etish, ularni harbiylardek tartibli va ma'nan yetuk qilib tarbiyalash katta maqsadim hisoblanadi. Bu yo'nalishda o'z bilim va ko'nikmalarimni yanada takomillashtirish uchun 6 bosqichli tayyorlov kursini muvaffaqiyatli yakunladim va murabbiylik hamda hakamlilik qilish bo'yicha imtihonlarni topshirib, maxsus sertifikatga ega bo'ldim.

Ayni paytda to'garak mashg'ulotlarini AIKO Ashihara karate federatsiyasi, Huquqni muhofaza qilish organlari federatsiyasi hamda "Barkamol avlod" bolalar maktabi bilan hamkorlikda olib boryapmiz. Ushbu hamkorlik yoshlarimizni jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda, ma'naviy rivojlantirishda ham muhim o'rin tutmoqda. To'garak mashg'ulotlarida tartib-intizom, qat'iyat, jamoaviylik kabi muhim sifatlarga alohida e'tibor qaratamiz.

quvvatlashmoqda. To'garak nafaqat jismoniy mashg'ulotlar o'tkazish, balki yosh avlodning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishda ham muhim o'rin tutmoqda.

Xususan, kichik serjant Nodira Abdusaidovaning qizi Nazirabonu Abdusaidova ushbu to'garakning eng faol ishtirokchilaridan biri hisoblanadi.

– Bugungi kunda yoshlarimizning har tomonlama rivojlanishi juda muhim, – deydi kichik serjant Nodira Abdusaidova. – Bugun nafaqat yigitlar, balki qizlarimiz ham jismonan sog'lom, ma'nan kuchli va chidamli bo'lishlari lozim. Shu sabab qizimning sport bilan shug'ullanishini juda xohlagandim. Maktabda ushbu sport to'garagining tashkil etilishi biz, ota-onalar uchun katta qulaylik yaratdi. U yerda qizim nafaqat jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lmog'ida, balki o'z do'stlari bilan birga intizomlilik, jamoaviylik va sabr-toqatni o'rganmoqda. To'garakning maktabda tashkil etilgani mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. O'quvchilar darsdan so'ng mashg'ulotlarga qo'shiladi, bu esa ularning vaqtini tejab, xavfsizligini ta'minlaydi.

– Sport to'garagiga qo'shilganimgan beriy hayotimda katta o'zgarishlar yuz berdi, – deydi Nazirabonu Abdusaidova. – Eng avvalo, jismoniy holatim sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Mashg'ulotlar orqali nafaqat kuch va chidam, balki o'zimga bo'lgan ishonchim ham mustahkamlanmoqda. O'z salohiyatimni to'liq namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ldim. Shuningdek, jamoada ishlashni o'rgandim. Jamoadoshlarim bilan birgalikda harakat qilish, bir-birimizni qo'llab-quvvatlash menga insonlar bilan muloqot qilish va hamkorlik ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Sport to'garagi menga yangi maqsadlar qo'yish va ularga erishishga ishonch berdi. Tuman va viloyat chempionatlarida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritishim ilk yutuqlarimdir. Bu faqat boshlanishi. Kelajakda ushbu sport turida yuqori natijalarga erishib, xalqaro musobaqalarda qatnashish va O'zbekiston bayrog'ini jahon arenalarida yuksaklarga ko'tarish niyatim bor.

Bu sport to'garagi yosh avlodning kelajagi uchun muhim qadam bo'lib, uning ahamiyatini har bir ishtirokchining muvaffaqiyatlari va sa'y-harakatlarida ko'rish mumkin. Umid qilamizki, bu to'garak shunchaki sportga qiziquvchi yoshlarning vaqtini mazmunli o'tkazishga xizmat qiluvchi manzil bo'lib qolmaydi. U kelajakda yurt bayrog'ini xalqaro maydonlarda yuksaklarga ko'taradigan, o'z Vatani bilan faxrlanadigan va uning sharafini himoya qiladigan sportchilarni yetishtirib chiqaradi. Bu to'garakda boshlangan har bir yoshning orzusi ertami-kechmi albatta, ro'yobga chiqishiga ishonchimiz komil.

**Ro'ziqul OCHILOV,**  
"Vatanparvar"







“

XIV asr oxiri – XVI asr boshlarigacha bo‘lgan Temuriylar davri o‘zining turli innovatsiyalari, yangiliklari, tizimliliigi va boshqa jihatlari bilan katta tarixiy ahamiyatga ega. Temuriylar ma‘muriyati murakkab byurokratiyaga ega bo‘lib, saltanat ishlari to‘g‘risida batafsil hisob-kitoblarni yuritardi.

”



# TEMURIYLAR

## DAVRIDA RAQAMLASHTIRISH

Temuriylar saltanatida qo‘lyozmalar, yozishmalar va rasmiy hujjatlar puxtalik bilan ko‘chirilgan va saqlangan. Bunga ko‘pincha qog‘ozga, ba‘zan esa pergamentga yozib qo‘yilgan soliq to‘g‘risidagi hisobotlar, yer uchastkalari va farmonlar kiradi. Katta manbaviy bazani tashkil etsa-da, zamonlar o‘tishi bilan ular jahonning turli yerlariga tarqalib ketgan va ularni to‘plash olimlarga qiyinchilik tug‘diradi.

Temuriylar keng qamrovli kutubxona va arxivlar tashkil etgan, ularda ko‘plab qo‘lyozma asarlar saqlanardi. Xususan, Samarqand, Buxoro, Hirot, Sheroz va boshqa shaharlarda boy kutubxonalar tashkil etilgandi. Masalan, Temurning nabirasi Ulug‘bekning kutubxonasi islom olamidagi eng mashhur kutubxonalardan biri edi. Olimlar va ma‘murlar ko‘pincha bu kutubxonalarga kirish imkoniga ega bo‘lib, davlat boshqaruvi haqida ham o‘z bilimlarini boyitib borgan. Bu esa davlat ishlarini boshqarishni osonlashtirgan.

Mirzo Ulug‘bek akademiyasi, uning tomonidan qurilgan rasadxona va “Ziji jadidiy Ko‘ragoniy” asaridagi yulduzlar joylashuvi va boshqa bu kabi ishlar Temuriylar davrida o‘ziga xos raqamlashtirish ishlari amalga oshirilganini ko‘rsatadi.

Mirzo Ulug‘bek davrida Temuriylar astronomiya va matematikada sezilarli yutuqlarga erishdi. Temuriylar hukmdori va astronom Ulug‘bek Samarqandda rasadxona tashkil etib, u astronomik tadqiqotlarning yetakchi markaziga aylandi. Ulug‘bek rahbarligida tuzilgan “Ziji jadidiy Ko‘ragoniy” nomli astronomik asari o‘z davrining eng to‘g‘ri va keng qamrovli jadvalidan biri edi. O‘sha davrdagi bu jadval O‘rta asrlarning o‘ziga xos raqamlashtirish tizimini eslatadi. Osmon jismlarini kuzatish uchun ilg‘or astronomik asboblarni qo‘llanilgan, ular navigatsiya, vaqtni hisoblash va taqvim hisoblarida yordam berdi. Ushbu asboblarni bugungi raqamli tizimlardan farq qilsa-da, o‘z davri uchun murakkab texnologiyani ifodalagan.

**BUYUK IPAK YO‘LIDA** tashkil etilgan “Yom” tarmog‘i deb nomlanuvchi pochta tizimi Temuriylar imperiyasi bo‘ylab aloqani osonlashtirdi. Yo‘llardagi ma‘lum masofa chiziqlarida O‘rta asrlarning o‘ziga xos raqamlashtirish tizimi joriy etilgandi. Ushbu tarmoq axborot va ma‘muriy buyruqlarni samarali uzatish imkonini berdi. Saltanatda diplomatik missiyalar va boshqa davlatlar bilan yozishmalar puxtalik bilan hujjatlashtirilgan. Bu hujjatlarda Temuriylar davrining xalqaro munosabatlari va boshqaruv amaliyoti mujassam edi.

Temuriy hukmdorlar olimlar, shoirlar va san‘atkorlarga homiylik qilgan. Ular ma‘muriy samaradorlikni bilvosita qo‘llab-quvvatlovchi bilimlarni ishlab chiqarish va saqlashni rag‘batlantirdi. Temuriylar hatto me‘morlik binolari, gidroinshootlar, bog‘lar va boshqa sohalarni ham o‘zaro uyg‘unlikda me‘moriy-badiiy yechim vositasida murakkab hisob-kitoblar asosida raqamlashtirdi. Madrasa kabi ilm markazlari tashkil etilib, ular ma‘muriyat va ziyolilar tayyorlashga xizmat qildi.

Temuriylar davri o‘zining me‘moriy yutuqlari bilan ham mashhur bo‘lib, ularning ko‘pchiligida batafsil yozuvlar, murakkab intellektual muhitni aks ettiruvchi geometriya va xattotlik qo‘llanilgan. Yetti (*haft rangi*) rangdagi tabiiy naqshlar bilan bezatilgan Oqsaroy peshtoqida “Sulton Allohning yerdagi soyasidir” degan mazmundagi yozuvlar bitilgan. Oqsaroy peshtoq ustunining old tomonida, cho‘zilgan oltiburchak shaklida arab tilida “Adolat davlat asosi va hukmdorlarning shioridir” deb o‘qiladigan yozuv olti marta takrorlangan.

Oqsaroyning old tomonidagi cho‘zilgan peshtoqida arab tilining “kufiy” uslubida va tilla suvi yugurtirilgan matn shunday o‘qiladi: “Podsholarning so‘zi so‘zlar orasida podshodir”. Shuningdek, Oqsaroyda “Bizning qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurgan imoratlarga boqing”, “Oqil o‘z amaliga suyanadi, johil esa orzu-umidiga” kabi hikmatli so‘zlar bitilgan.

**BOBUR MA‘LUMOTLARIGA KO‘RA**, Oqsaroy hovlisi o‘rtasida hovuz,

to‘rida gumbazli katta xona – devonxona, yonlarida maslahatchilar uchun kichik xona, hashamatli ravoqli bostirmalar, ichki tomonida haram va amirning xonasi joylashgan.

Devonxona peshtoqida arslon va quyosh tasviri va Temur davlatining 3 halqa shaklidagi nishoni bo‘lgan. Gumbaz ichi va yonlariga, burchaklardagi minoralarga koshin-g‘ishtlardan qalqon shaklidagi girih naqshlar ishlangan. Bu naqshlar silliqlangan g‘isht va feruza rangli sirkor parchindan yozilgan kufiy xatlar zamini yo‘g‘on ko‘k belbog‘ga o‘xshash mujassamotni tashkil etgan. Albatta, bu bino astronomik o‘lchovlar bilan qurilgan bo‘lib, murakkab raqamlashtirishni o‘zida ifoda etadi.

Temuriylar davri zamonaviy ma‘noda raqamlashtirishni boshdan kechirmagan bo‘lsa-da, bu davr boshqaruv, ish yuritish, fan va texnologiyada sezilarli yutuqlar bilan ajralib turdi. Hujjatlarni puxta yuritish amaliyoti, kutubxona va arxivlarni tashkil etish, ilg‘or matematik va astronomik vositalardan foydalanish, geoinformatsion tizimlarni qo‘llash davrning o‘ziga xos belgilari edi. Mazkur elementlar birlashib, yuqori darajada tashkil etilgan va samarali davlat boshqaruvi yaratdi, bu esa boshqaruv va ilm-fanning kelajakdagi rivojlanishi uchun zamin yaratdi.

**BUGUNGI KUNDA** Temuriylar davri davlat boshqaruvi idoralari, imperiya hududlari, ularga tegishli bo‘lgan yerlar, ma‘muriy boshqaruv tizimlari markaziy shaharlari, kutubxonalar, me‘morlik inshootlari, bog‘lari, Buyuk Ipak yo‘lining o‘sha davrdagi tarixiy geografyasi, bekatlari, jahon kutubxonasi, muzey, arxivlari va boshqa markazlarida mavjud bo‘lgan manbalari, osori-atiqalari kabilarni raqamlashtirish Temuriylar davriga oid tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishda, davlatchilik tarixini atroflicha tushunib yetishda va unga baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Shohista O‘LJAYEVA,**  
tarix fanlari doktori, professor



Yoshlar oyligi

# Vatanparvarlik festivali



Ertamiz egalari bo'lgan yoshlarning kelajakda o'z o'rinlarini topishida barcha soha vakillari birdek mas'ul bo'layotganligi barchamizga ma'lum. Ayniqsa, ularning vatanparvarlik ruhida tarbiya topishlarida harbiy xizmatchilarning o'rni beqiyos. Harbiy qism va muassasalarda 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!” shiori ostida o'tkazilayotgan festival va tadbirlarda ham buni yaqqol ko'rish mumkin.

Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti ham xuddi ana shunday festivalga mezbonlik qildi. Zangiota tumanida joylashgan harbiy qismda bo'lib o'tgan tadbir tuman hokimligi, Yoshlar ishlari agentligi bo'limi hamda Yoshlar ittifoqi tuman kengashi bilan hamkorlikda o'tkazildi. Unda faxriylar, mahalla faollari, “Vatan tayanchi” bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a'zolari va bir guruh yoshlar ishtirok etdi.

Tadbir “Sog'lom hayot uchun 5000 qadam” marafon yurishi bilan boshlandi. Turli ko'rgazmali chiqishlar, robototexnika, harbiy qurol-aslaha va texnikalar namoyishi, sport musobaqalari hamda kamondan o'q otish mashg'ulotlari barchaga manzur bo'ldi.

– Aloqa harbiy instituti bilan hamkorlikda juda ko'plab loyiha va tadbirlarni amalga oshirib kelmoqdamiz, – deydi Zangiota tumani Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi boshlig'i Hikmat Ziyamitdinov. – Ushbu harbiy ta'lim muassasasi tumanimizning otaliqqa olingan yoshlar bo'yicha birinchi sektoriga birlashtirilgan. Ayni shu dargohda sportning futbol, basketbol, voleybol, shaxmat, shashka va “Zakovat” intellektual o'yinlari tashkil etilgan bo'lib, yoshlar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishida



o'zining hissasini qo'shib kelmoqda. Quvonarli shundaki, tumanimiz yoshlari uchun harbiy qism va aloqa institutining sport inshootlari eshiklari doimo ochiq. Zangiota tumanining 1-sektoriga 17 ta mahalla birlashtirilgan. Har bir mahalla miqyosida uyma-uy kirib, yoshlar masalalari o'rganilmoqda. Bu kabi o'rganishlarda biz bilan hamkorlik qilayotgan harbiy xizmatchilarning ham borligi ijobiy natija bermoqda. Buni misollar orqali tushuntiradigan bo'lsam, o'tgan yilga nisbatan 2024-yilda safarbarlik chaqiruvi rezerviga ariza topshirgan yoshlar soni oshdi. Muddatli harbiy xizmatga borish istagini bildirgan yigitlar soni ham keskin ko'tarildi.

Musobaqa tarzida bo'lib o'tgan sport o'yinlari ishtirokchilarda sog'lom raqobatni shakllantirish, do'stlikni mustahkamlash va ko'tarinki kayfiyat ulashishga qaratildi. Festival yakunida faol ishtirokchilar tashkilotchilarning diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Sherzod SHARIPOV,  
“Vatanparvar”

Kelajagimiz egalari

## Qo'mondon



## va yoshlar uchrashuvi



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab, Urganch shahridagi Yoshlar markazida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Raxmatullo Raxmonov hamda yoshlar uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Qo'mondon va yoshlar uchrashuvida O'zbekiston yoshlar ittifoqi Xorazm viloyati kengashi raisi G'ayratjon Yuldashev, “Jasorat maktabi” harbiy-vatanparvarlik yig'ini qatnashchilari, umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari ishtirok etdi.

“Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!” shiori ostida bo'lib o'tgan uchrashuvda qo'mondon yoshlarga

harbiy xizmat nufuzi, harbiy sohada olib borilayotgan islohotlar, qo'shinlarning jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligida erishilgan yutuqlar haqida so'zlab berdi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida jinoyatchilik va qonun buzilishi holatlarining oldini olish maqsadida joriy yilda 2 mingga yaqin tadbir tashkil etilib, 33 mingga yaqin yosh jalb etilgani ta'kidlandi. Ichki ishlar organlarida profilaktik hisobda turgan 400 nafar yosh bilan harbiy qismda o'n kunlik “Jasorat maktabi” o'quv yig'ini o'tkazilgani, ushbu yig'inlarning samarali ekanligi e'tirof etildi.

Sermazmun o'tgan uchrashuv faol va tashabbuskor yoshlarning harbiylikka, Vatanni himoya qilishga bo'lgan xohishini ifodalab, ilm olishga, hayotda o'z o'rnini topa olishiga chanqoqligini ko'rsatdi.

Tadbir davomida yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob oldi.

Davra suhbat

## Jasorat madhi



So'nggi yillarda harbiy sohada olib borilayotgan islohotlarning samarali natijasi o'laroq, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada esa boy hayotiy va xizmat tajribasiga ega bo'lgan Qurolli Kuchlar faxriylari faollik ko'rsatayotgani, albatta tahsinga sazovor.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi faxriylar ishlari bo'yicha kengashlarning bir guruh harbiy ustozlari ishtirokida “Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!” shiori ostida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbir kelajak avlod vakillariga mardlar kasbi haqida batafsil tushunchaga ega bo'lishga yordam berdi.



Navbatdagi tadbirda faxriylar tomonidan Nukus shahrida joylashgan Joliboy Izentayev nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati va 22-umumta'lim maktabi o'quvchi-yoshlari bilan davra suhbat o'tkazildi.

Harbiy pensionerlar maktab o'quvchilariga armiya va xizmat yillari haqidagi xotiralardan so'zlab, hayotiy tajribalari bilan o'rtoqlashdi. Bugungi kun milliy armiyasining dunyo tamaddunida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar yetkazildi.

Davra suhbat o'quvchi-yoshlar uchun qiziqarli va foydali bo'ldi.



Ehtirom

## OTA-ONALARGA

## TA'ZIM

Har bir oila Vatanimizning bir bo'lagidir. Oilani mamlakatning kichik va mo'tabar bir bo'lagiga qiyoslash mumkin. Ayniqsa, oila farzandlarning shaxs sifatida shakllanishida, ma'naviy va ma'rifiy salohiyatida, ularning qaysi kasb egasi bo'lishida juda muhim rol o'ynaydi. Farzand bolalikdan to'vayaga yetgunga qadar ota-ona tarbiyasida bo'ladi. Oila deb ataluvchi mustahkam qo'rg'onning ustuni ota bo'lsa, unga tirgak bo'luvchi onadir. Dunyodagi har bir ota-ona katta umidlar bilan farzand o'stirar ekan, avvalo, ularning mard, botir, o'z uyi va yurtini himoya etishga qodir insonlar bo'lib voyaga yetishini istaydi. Bu yozilgan maqola ana shunday ota-onalardan biri Erimbat ota va Gulchehra onaga, shu qatorda barcha Vatan himoyachilarining ota-onalariga hurmat, e'tibor ramzi sifatida dunyoga keldi.

Erinbat ota Allayarovlar oilasi Xorazm viloyati Gurlan tumani Vazir qishlog'i Esabiy mahallasida istiqomat qiladi. Erinbat ota hozirda 84 yoshda, muqaddam mexanizator bo'lib ishlagan. Turmush o'rtog'i Gulchehra ona Allayarova esa 77 yoshda bo'lib, farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullangan. Erinbat ota oilasida 11 nafar farzand dunyoga kelgan, 5 nafar qiz va 6 nafar o'g'il. Bu nuroniy ota-ona hozirda nafaqada bo'lib, har kuni Yaratgandan O'zbekistonimiz sarhadlari himoyachilarini o'zining panohida asrab, yurtimiz osmonini musaffo, tinchligini barqaror, mustaqilligini bardavom etishini so'rab duo qiladilar.

Bu oila qishloqda hurmat va obro'ga ega bo'lib, farzandlarini jamiyatga kerakli shaxs qilib tarbiyalagan. Bu oila sohib va sohibasi qilgan mashaqqatli

mehnatlarining, farzandlariga bergan tarbiyasining rohatini ko'rib, keksalik gashtini surmoqda.

Erinbat ota Allayarovlar oilasida farzandlarning ta'lim va tarbiyasiga, ayniqsa o'g'il farzandlarning jismoniy yetukligiga juda katta e'tibor qaratishgan. Oila boshlig'i Erinbat ota ulami ta'lim-tarbiyasi bilan bir qatorda mehnat qilishga, to'g'ri so'zli bo'lishga, eng muhimi insoniy fazilatlaridan biri oilani, Vatanni sevishtirishga o'rgatgan. Shu bois bo'lsa kerak, oilada kamol topgan farzandlarning 5 nafari hozirda Vatan himoyachilari safida xizmat qilmoqda. Bular: Sadiqboy, Xushnud, Ulug'bek, Oybek, Azamat Allayarovlar. Bugungi kunda Sadiqboy Allayarov podpolkovnik, Xushnud katta serjant, Ulug'bek podpolkovnik, Oybek mayor va Azamat kapitan harbiy unvoniga ega, hozirda ular Mudofaa vazirligining turli sohalarida xizmat qilmoqda.

Vatanimiz sarhadlarini himoya qilayotgan, yurtimiz osoyishtaligiga munosib hissa qo'shayotgan, mard, jasur o'g'lonlarning ota-onalariga ta'zimdamiz. Eng oliy ne'mat – tinchligimizning qadriga yetishimiz, oilalarimiz, farzandlarimiz, kelgusi avlodlarimizning baxt-u kamoli uchun bu ulug' boylikni asrab-avaylashimiz lozim. Shu maqsadda yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko'proq ahamiyat berishimiz kerak. Bu oila to'g'risidagi maqola yoshlarimiz ong-shuuri va qalbida Vatan himoyachisidek oliyanob kasbga hurmat va ehtirom hissini uyg'otishda oz bo'lsa-da, hissa qo'shsa, behad baxtivor bo'lardim.

Xulosa qilib aytganda, har tomonlama yetuk, jasur va sergak o'g'lonlarimiz azm-u shijoatini ko'rganda ularni tarbiyalagan ota-onalariga va ustozlariga rahmat aytamiz. Zero Vatanga, xalqiga sadoqatli yigitlar xizmat qilayotgan professional armiyamiz mustaqilligimizning, tinch hamda farovon hayotimizning ishonchli qalqonidir. Yurtimizda Vatanni himoya qilish har bir farzandning muqaddas va sharaffli burchi ekanini singdiradigan, farzandlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydigan ota-onalar ko'paysin!

**Mira BEKCHANOVA,**  
Jamoat xavfsizligi universiteti  
o'qituvchisi, PhD

Inson qadri

## Turarjoy xarid qilishning

## “eskrou” tizimi haqida bilasizmi?

Ma'lumki, bugungi kunga kelib, yurtimizda aholi uchun qurilayotgan yangi turarjoylar soni keskin ortib bormoqda. O'z navbatida, ushbu jarayonda ayrim qurilish tashkilotlari va firmalari tomonidan aholi ishonchini suiiste'mol qilish, turarjoylarni shartnomada belgilangan muddatlarda topshirmaslik, eng achinarlisi, xalqimiz uzoq yillar davomida misqollab to'plagan pul mablag'larini firibgarlik yo'li bilan o'zlashtirish holatlari ko'plab kuzatilayotgani hech kimga sir emas, albatta.

Qayd etish joizki, bu kabi salbiy hodisalar davlatimizning, birinchi navbatda tanlagan yo'li va maqsadi hisoblangan “Inson qadri oliy va ustuvor” degan tamoyilga umuman ziddir. Shu maqsadda ushbu dolzarb muammo yuzasidan davlatimiz rahbari boshchiliklarida 2024-yilning 23-sentabr kuni qurilish industriyasi va qurilish materiallari ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalariga bag'ishlab yig'ilish o'tkazildi hamda uning samarali yechimi sifatida endilikda turarjoy

sotib olishda kafolatlangan eskrou tizimi joriy qilinishi taklif etildi.

Yig'ilish davomida Prezidentimiz tomonidan bundan buyon quruvchi tashkilotlar turarjoylar sotuvini tashkil etish bo'yicha banklar bilan shartnoma tuzishi, barpo etiladigan turarjoylarni sotib olmoqchi bo'lgan odamlar pulni quruvchiga emas, balki to'g'ridan to'g'ri bankka topshirishi, banklar esa yig'ilgan pulni resurs sifatida quruvchiga berishi va yakunda banklar quruvchi hamda xaridor o'rtasida ishonchli ko'priklar qurib, egasiga topshirishga kafil bo'lishi alohida ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, ushbu yangi tizim dastlab respublikamizning Samarqand shahrida, Yangiheyot va Sergeli tumanlarida bir yil mobaynida sinovdan o'tkazilishi belgilab qo'yildi. Qayd etib o'tish joizki, hozirgi kunda eskrou tizimi jahonning ilg'or va rivojlangan davlatlari iqtisodiyot tarmoqlarida, ayniqsa savdo-iqtisodiy munosabatlariga doir tuziladigan bitimlar doirasida qo'llanilishi

ommalashgan hamda tizim o'zining kutilgan natijalarini berib kelmoqda. Masalan, 2019-yil 1-iyuldan boshlab, Rossiya Federatsiyasida ko'p qavatli uylar qurilishida aksiyadorlik (*ulusli*) ishtirokchiligida amalga oshiriladigan bitimlarda turli asossiz tavakkalchiliklarning oldini olish yoki kamaytirishga xizmat qiluvchi maxsus eskrou hisobvaraqlari yordamida moliyalashtirishning yangi tizimiga o'tildi.

Eskrou – inglizcha “escrow” so'zidan olingan bo'lib, pul yoki mol-mulkni saqlash degan ma'noni anglatadi. Eskrou savdo va yuridik termin sifatida moliyaviy shartnomaviy bitim bo'lib, unda uchinchi shaxs kelishuvda yoki operatsiyada qatnashuvchi ikki taraf uchun zarur bo'lgan to'lov mablag'larini, kelishuv shartlari to'liq amalga oshguniga qadar, o'zida saqlash va boshqarishni o'z zimmasiga oladi. Qolaversa, eskrou xizmati mazkur mablag'larni shartli saqlash hisob raqamida ushlab turish orqali kelishuvni (*tranzaksiyalarni*) tahdidli tavakkalchiliklardan xoli, yanada xavfsiz bo'lishiga imkon yaratib, to'lov ishonchli kompaniyaning nazorati ostida faqat shartnomaning barcha shartlari bajarilganda ochiladigan xavfsiz hisob raqamda saqlanishini ta'minlaydi.

Eskrouning asosiy maqsadi – tovar oluvchiga tovarning yetib kelishini, tovar sotuvchi mablag'lar kelib tushishini ta'minlashdan iborat. Eskrouning o'rni bitimni amalga oshirishdagi vositachi sifatida namoyon bo'ladi. Kelishuv bo'yicha barcha majburiyatlar amalga oshirib bo'lingach, eskrou xizmatini amalga oshiruvchi pul mablag'larini tovar yetkazib beruvchi hisobiga ko'chiradi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, barcha sohadagi savdo-iqtisodiy bitimlar qatori ko'chmas mulk va turarjoy bozorlarida eskrou tizimiga o'tish shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida sog'lom moliyaviy muhitni ushlab turish va kafolatlash, ayniqsa, iste'molchi huquqlarining himoyasini munosib ta'minlashga xizmat qiladi.

**Adliya mayori Umid SHUKUROV,**  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
katta o'qituvchisi







## Hikoya



# MENING DADAM HARBIY

**O'quvchilar uchun katta tanaffus qo'ng'irog'i jarangladi. Maktab binosi yo'laklari bir zumda bolalarning shovqin-suroni bilan to'ldi. O'n besh daqiqalik bu fursat bolalar uchun maroqli va qadrli. Ular maktab oshxonasidan biror yemak olish uchun shoshiladi. Jahongirmirzo ham sinfdoshlari bilan oshxonaga intildi.**

– Bolalar, bu yerda navbat kutib turgandan ko'ra, maktab yonidagi do'kondan biror shirinlik olaylik, – sinfdoshlariga savol nazari bilan qaradi Rustam.

– To'g'ri aytasan, tez harakat qilsak, ulguramiz, – uning fikrini tasdiqladi Ma'ruf.

– Unda qani ketdik! – yo'l boshladi Bahodir. – Jahon, sen bormaysanmi?

– Yo'q, men shu yerda ovqatlanaman, boraveringlar, – javob qaytardi Jahongirmirzo.

– Qo'yaveringlar, uning otasi harbiy bo'lgani uchun harbiycha tarbiyalangan, ota-onasining aytganini qiladi, xuddi robotdek.

Bolalar Rustamning gapini tasdiqlagan ko'yi kulib, bosh iring'agancha oshxonadan chopqillab chiqib ketdi. "Do'stim Zohirning yonimda yo'qligi

bilindi", xo'rsindi Jahongirmirzo. – Hozir oldimda bo'lganida, albatta men bilan qolgan bo'lardi".

Sinfdoshlarining bunday gapi o'n bir yoshni qarshilayotgan bolakay uchun yangilik emas. Ular qitmirlik qilgisi kelsa, dadasining harbiy xizmatchi ekanligini har gal qistirib o'tadi. Bunga sinfdoshlari bilan bo'lib o'tgan bir tortishuv sababchi bo'lgan. O'shanda to'rt-besh chog'li o'smirlikka da'vogar bolakaylar otalarining kasbi haqida maqtanib qolishdi:

– Mening dadam prokuror, katta ishda ishlaydi, haydovchisi bor, – g'urur bilan birinchi bo'lib so'z boshladi Rustam. – Men ham katta bo'lsam, albatta prokuror bo'laman!

– Mening dadam esa quruvchilarning boshlig'i, qo'lida ko'p odam ishlaydi, – ko'zlarini

katta-katta ochib gapira ketdi Bahodir. – Ular baland-baland, ko'p qavatli imoratlar quradi.

– Menga dadamning ishi rosa yoqadi, – shoshilib suhbatga qo'shildi Ma'ruf. – Dadam rosa katta mashina haydaydi, uzoq joylarga yuk tashiydi. Har gal uyga qaytganiga menga zo'r sovg'alar, o'yinchoqlar olib keladi.

– Dadam bilan onam o'qituvchi, ularni hamma ustoz deb hurmat qiladi, – Zohir ota-onasi haqida gapira ketdi. – Onam matematika fanidan, dadam esa harbiy tayyorgarlikdan bolalarga dars o'tadi.

– Zo'r-ku, unda dadang harbiy sohani yaxshi bilsa kerak? – Do'sti Zohirning gapini mamnun davom ettirdi Jahongirmirzo. – Mening dadam harbiy xizmatchi, u bilan juda faxrlanaman. Dadam hech nimadan qo'rqmaydi, gohida kechalari ham xizmatda bo'ladi. Menam dadam kabi harbiy bo'laman!

– Haa, dadang haqiqatan zo'r ekan, – do'stiga havas bilan qaradi Zohir. – Men ham harbiy xizmatchi bo'lishni orzu qilaman. Dadamga bu haqda aytganimda "botir o'g'lim" deb xursand bo'ldi.

– Namuncha ikkalang maqtanding?! – ensasi qotdi Rustamning. – Harbiylar doim xizmatda bo'ladi. Masalan, sening dadang ota-onalar majlisiga biror marta kelganmi?

– Dadamning xizmati juda mas'uliyatli. Shuning uchun...

– Rustam to'g'ri gapirdi, bizning dadamiz zo'r o'yingohlarga, katta shaharlarga olib boradi. Sen bu haqda hech gapirmagansan.

– To'g'ri, keyin ular bir joyda yashamaydi, ko'chib yuradi. Balki, sizlar ham dadangning ishi sabab bu yerdan ko'chib ketarsizlar...

Sinfdoshlarining birin-ketin bir-biriga gap bermay aytgan e'tirozi Jahongirmirzoni dovdiratib qo'ydi. Bir tomondan ularning gapida jon bor. Ular to'rt marotaba ko'chishganini biladi. Opasi bilan akasi bu shaharga kelgunga qadar o'sha joydagi maktablarda o'qigan. Yaxshiki, oldida do'sti Zohir bor, u gapini o'nglaguncha, faxr ila javob qaytara ketdi:

– Baribir, zo'r odamlar harbiy bo'ladi. Katta bo'lib, do'stim ikkimiz harbiy bo'lsak, hammalarning havas qilasizlar hali, to'g'rimi, Jahongirmirzo?

– Xuddi shunday! – do'stiga mamnun qiyofada harbiylarga xos javob qaytardi bolakay...

O'shandan buyon ayrim sinfdoshlari Rustam boshchiligida Jahongirmirzoga tinmay qitmirlik qiladi. Mana, bugun ham shu holat takrorlandi. Bundan ta'sirlangan yigitcha maktabdan kayfiyatsiz qaytdi.

– Sog'lig'ing yaxshimi, o'g'lim? – uning o'ychan yuziga savol nazari bilan qaradi onasi Zamira opa. – Nega kayfiyating yo'q, charchadingmi?

– Yo'q, onajon, haligi...

– O'rtoqlaring bilan urishib qoldingmi? – javob berishga qiyalayotgan o'g'lining "sir"ini bilishga harakat qildi ona. – Sening yoshingda sinfdoshlar bilan kelishmovchiliklar bo'lib turadi, bunga asabiylashmaslik kerak. Qani, gapir-chi, o'g'lim, nima bo'ldi?

– Oyijon, nega dadam bizni o'yingohlarga olib bormaydi? Bizni aylantirgani doim siz olib chiqasiz? Sinfdoshlarimning dadasi...

Jahongirmirzo bolalar bilan bo'lib o'tgan suhbat va o'ziga xos tortishuvni onasiga aytib berdi. Zamira opa o'g'liga taskin bergan ko'yi o'ylanib qoldi va ertasiga farzandlari ta'lim olayotgan maktab tomon yo'lga tushdi...

\*\*\*

– Bolalar, bugun darsdan keyin maktab yig'inlar zalida bo'lib o'tadigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirda ishtirok etamiz, – o'quvchilarni ogohlantirdi ustoz Munavvara opa, – so'roqsiz ketib qolish yo'q, hamma to'liq qatnashishi shart, barchaga tushunarlimi?

– Tushunarli, ustoz... – birin-ketin javob qaytardi bolalar...

Jahongirmirzo va sinfdoshlari boshlang'ich sinf o'quvchilari bo'lgani uchun ustozlari boshchiligida oldingi qatordan joy olishdi. Katta zal o'quvchilar bilan gavjum bo'lgan bir pallada sahnaga bir qator mehmonlar chiqib kelishdi. Ne ajabki, ular orasida Jahongirmirzo va Rustamning ham dadalari bor edi.

– Hurmatli o'quvchilar, – so'z boshladi maktab direktori, – bugun maktabimizda quvonchli kun, desak, arizydi. Chunki ko'pdan buyon kutilayotgan mehmonlar sizlar bilan suhbatlashishadi. To'g'rirog'i, o'z kasbida o'rin topgan fidoyi, zahmatkash, elimiz

e'tiboridagi turli soha egalari o'z faoliyatlari haqida so'z yuritishadi. Bu uchrashuv sizlar uchun katta ahamiyatga ega ekanligiga shubha yo'q. Negaki kasb tanlashga intilib turgan o'quvchilar uchun bu ayni muddao. Tadbir davomida esa kuy-qo'shiqlar yangraydi...

Tadbirni olib borgan suxandon ilk so'zini Vatanga bag'ishlangan she'r bilan boshladi va birin-ketin mehmonlarga so'z bera boshladi. Shifokor, muhandis, bank xodimi, sport ustasi, huquq xodimi, harbiy xizmatchi...

So'zga taklif qilingan har bir kasb egasi o'z sohasining mas'uliyatli va qiziqarli tomonlarini o'quvchilarga shu qadar chiroyli yetkazar ediki, zalni to'ldirib o'tirgan bolalar bu samimiy suhbatni mehr ila tinglardi. Ayniqsa, Jahongirmirzoning dadasi Anvar aka so'z olganida davraga o'zgacha jimlik cho'kdi. Dunyoning ayrim joylarida ro'y berayotgan tahlikali holatlar, vayron bo'lgan shahar-u qishloqlar, shafqatsiz urush iskanjasida kattalar qatorida jabr chekayotgan bolalar... Mana shunday fojiali holatlarning oldini olish uchun tun-u kun xizmatda bo'ladigan harbiy xizmatchilarning mas'uliyatli vazifasi, ularning zahmatli xizmati ortidagi osuda hayot, Vatan tinchligi va hurligini asrash yo'lida qahramonlik ko'rsatgan mard o'g'lonlar jasorati...

Anvar aka suhbatni tugatganida zalni o'quvchilarning gulduros qarsaklari egalladi. Shundan so'ng turli kasb egalardan iborat mehmonlar yana birin-ketin so'z olib, harbiy soha vakillarining sharaflari kasbini ulug'lagan holda birma-bir so'z olishdi:

– Yurtimizning tinchligi va hurligini Vatan posbonlari asrasagina, sizlar maktablarda mana shunday maza qilib o'qiysizlar. Biz sevgan kasbimizda bamaylixtir ishlay olamiz...

– Qaysi bir soha bo'lmasin, tinchlikda rivojlanadi, tinchlikda insonlarga foydasi tegadi. Tinchlik ortida esa bahodir harbiylarimiz xizmati turadi. Bir keksa donishmanddan so'rashibdi: "Duoga qo'l ochilganda, avvalo, tinchlik va salomatlik so'raladi. Ayting-chi, inson uchun birinchi navbatda salomatlik zarurmi yoki tinchlik?" Donishmand shunday javob qaytargan ekan: "Kasal bo'lsang, dardingni davolatish, bamaylixtir yotishing uchun ham tinchlik kerak bo'ladi. Shu sabab avvalo, tinchlik bo'lsin, bolam!" Darhaqiqat, jasur posbonlarimiz bor ekan...

– Men shifokorman, kasbim sabab insonlar dardini davolayotganimdan xursandman. Biroq sarhadlarimiz daxlsizligi, Vatan mustaqilligi, el tinchligini asrashdek ulug' vazifaga hayotini bag'ishlagan Vatanimiz himoyachilari oldida doimo ta'zimdaman.

– Barchamiz ta'zimdamiz...

Mehmonlarning harbiy soha xodimlariga bergan e'tirofi olqishlarga ulandi. O'qituvchilar boshchiligida o'quvchilar oyoqqa qalqidi. Jahongirmirzo va do'stlari o'rnilaridan turib qarsak chalar ekan, Rustam unga qarab "zo'r" degan ma'noda boshini qimirlatib qo'ydi...

**Zulfiya YUNUSOVA,**  
"Vatanparvar"



## Mashhurlar hayotidan



Huquqshunos Grendon bu holga "Omadsiz nikoh mevasi", deb baho beradi. Bu gap anchayin yumshoqroq aytilgan. Negaki Linkoln xonim yigirma besh yil mobaynida erini egovlab, masxaralab o'tgan. Linkoln o'ta basavlat kishi bo'lgan. Xotini umr bo'yi uning jismoniy "nuqson"larini, harakatlarini kalaka qilgan. Chunonchi, uning oyoq-qo'llari haddan tashqari kattaligi, shalpanguloqligi, tizzalarini bukib, hindularga o'xshab oyog'ini sudrab bosishi, burnining to'g'ri emasligi, pastki lunjining osilib turishini hamma vaqt masxaralab, doimo tanbeh berib kelgan. Masalan, "Oyog'ingni sudramay qadam tashla!", "Yelkangni to'g'ri tut!", "Qo'lingni salanglatmay yur" kabi. Harqalay, erini o'z izmida tutishga, "tarbiyalashga" intilgan.

Ochig'ini aytganda, Avraam Linkoln va Meri Todd Linkoln o'zaro munosabatlarda mutlaqo qarama-qarshi holatlarda bo'lgan. Ularning tarbiyasi, dunyoqarashi, kelib chiqishi, xohishlari, intilishlarida yer bilan osmoncha farq bor edi. Ular hamisha bir-biridan norozi holda g'azablanib yashagan.

Ko'zga ko'ringan linkolnshunos marhum senator Albert Jon Bevirj o'z

yuziga sohib yuboradi. Bu voqea pansionatda yashovchi boshqa kishilar oldida bo'lgandi.

Linkoln xotiniga lom-mim demaydi. U haqoratlangan ko'yi jim turardi. Erli xonim namlangan sochiq bilan yuzini, kiyimlarini artib qo'yguncha miq etmaydi. Linkoln xonimning injiqligi, rashkchiligi, kaltabinligi, behuda xarxashalari borasidagi qiliqlari juda ko'pchilikka ma'lum va mashhur edi. Tabiatan fe'li tor, ziqna bo'lgan bu ayol ham umr bo'yi behalovat yashagan. Hozirgacha Linkoln qanday harakat sodir etgan-u, nega xotini qaynoq qahvani yuziga sohib yuborganini hech kim bilmaydi.

Xotining xurmacha qiliqlari Linkolnni o'zgartira oldimi? Ha, anchagina o'zgartirib yubordi. Iloji boricha, jamoatchilik joylarida, davralarda xotini bilan kamroq bo'lishga harakat qilardi.

Ular yashayotgan Springfildda advokatlar ko'pligidan boshqa qishloq va shaharchalardagi sud ishlarida ishtirok etishardi. Haftalab davom etadigan bunday ishlardan so'ng hamma shanba - dam olish kunlarida uylariga, oilalariga qaytishga oshiqardi. Ammo sho'rlik Linkoln

Linkoln mashhur huquqshunos, notiqgina emas, balki insoniyat tarixida buyuk islohotchi, nazariyotchi, tadbirkor, davlat arbobi - AQShning taraqqiyotida muhim burilish yasagan Prezident edi. U qullarni ozod va teng huquqli qilish, mamlakatni birlashtirish, yer islohoti o'tkazish, mamlakat konstitutsiyasida inson haq-huquqlarini himoya qiluvchi g'oyalarni aks ettirishning birinchi tolmas tashabbuskori va ijrochisi edi. "Yarim xalqi qul, yarmi ozod kishilardan iborat mamlakat hukumati uzoq yashay olmaydi", degan olamshumul ibora ham Linkolnga tegishlidir. Afsuski, shaxsiy hayotida rafiqasining badfe'li sirtmog'idan boshi xalos bo'lmadi.

Muhtaram o'quvchim! Keling, bir mulohaza qilib ko'raylik: malika Yevgeniya, grafinya Tolstaya, Linkoln xonim uchun bu qadar dovruqli hayotda nima yetishmas edi? Bu qadar fojia va kulfatlar sodir bo'lmasligi mumkin edi-ku!

Ko'p yillar davomida Nyu Yorkda sudya bo'lib ishlagan Bessi Xamburgerning ta'kidlashicha, oiladagi ichki nizolar, ayolning to'xtovsiz injiqliklari erkaklarning uyidan bosh olib chiqib ketishiga

# OMADSIZ NIKOH MEVASI

**Avraam Linkolnning hayotidagi ulkan fojia ham uning nikohi bo'lgan. E'tibor bering, uning fojiasiga sabab otib, suiqasd qilib o'ldirilishi emas, nikohi bo'lgan. Linkoln uni alamzada plantatorlar (katta yer egalari) yollagan qotil But otgandan keyin ham unga suiqasd qilinganini darhol anglab ololmagan, ammo qariyb chorak asr mobaynida xotinidan har lahza bezillab yashagan.**

esdaliklarida shunday yozadi: "Linkoln xonimning bor ovozi bilan erini kamsituvchi, haqoratomuz so'zlari ko'chani boshqa tomonidan eshittilib turardi. Unga yaqin qo'shnilar tez-tez uning baqir-chaqirlaridan xabardor bo'lib turishardi".


Hayotlaridagi mana bu lavhalarga e'tibor bering. Nikoh to'yidan so'ng ular Springfilddagi Jeykob Erli xonimning pansionatida yashashadi. Bir kuni er-xotin nonushta qilishayotgan edi. Linkoln qandaydir bir harakat qiladi. Bu xotining g'azabini qaynatib yuboradi va bu xuruj asnosida bir piyola qaynoq kofeni erining

uyiga borishga bezillardi. U uch bahor, uch oy yozda qishloqma-qishloq, shaharma-shahar kezib, ish bilan band bo'lardi. Springfildda aslo yaqinlashmasdi. U sharoiti noqulay mehmonxonalarda yashab, mazamatrasiz oshxonalarda tamaddi qilardi. Faqat xotining "diyord"idan nari turishgina unga huzur-halovat bag'ishlardir. Ha, u hamma narsaga chidardi, faqat xotining diydoyolariga aslo toqati yetmasdi. Vaholanki, Avraam

sabab bo'lar ekan. "Boston+post" gazetasining yozishicha, xotinalarning erining inon-ixtiyorini o'z qo'lga olishga, oila hukmronligiga erishishga intilishlari shaxsiy oilaviy turmushni barbod qilishga olib keladi.

Oila samimiy tenglikda baravj daraxtdek yashnaydi. Aslo er-xotinning teppa-teng bir-biriga tashlanishida emas.

**Deyl KARNEGIning "Chidash san'ati" kitobidan olindi.**



@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



**BIZ HAQIMIZDA**

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MUDOFAA VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti - "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-91  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo'lim: 55 511-25-90

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva  
Musahhah: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: F-5883  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 32 422 nusxa  
Bosishga topshirish vaqti: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz  
www.mudofaa.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya